

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI
MOLIYAVIY MENEJMENT FAKULTETI
“MENEJMENT VA MARKETING” KAFEDRASI

SATTOROVA ZILOLA ISTAT QIZI
«TIJORAT BANKLARIDA TAVAKKALCHILIKNI BOSHQARISH
XUSUSIYATLARI»

«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»

«Moliyaviy menejment» fakulteti dekani
i.f.n., dotsent
Astanakulov Olim Tashtemirovich
« ____ » _____ 2015

«Menejment va marketing» kafedrası mudiri
i.f.n.
Jumayev Otabek Tolibovich
« ____ » _____ 2015

Bitiruvchi :

5230200 -“ Menejment”- ta'lim yo'nalishi
4 -kurs talabasi
Sattorova Zilola Istat qizi

Ilmiy rahbar:

katta o'qituvchi Bozorova Fayoz To'xtamurodovna

TOSHKENT – 2015

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. TIJORAT BANKLARI TAVAKKALCHILIGINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI	6
1.1 Tijorat banklari tavakkalchiliklarining mohiyati va ularni boshqarishga doir talablar.	6
1.2 Tijorat banklari tavakkalchiliklarining turlari va ularni boshqarish xususiyatlari.	12
1.3 Tijorat banklari tavakkalchiliklarini hisoblash usullari	18
II BOB. TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA TAVAKKALCHILIKNI BOSHQARISH VA UNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI (“O’zsanoatqurilishbank” ATB Uchtepa filiali misolida)	23
2.1 “O’zsanoatqurilishbank” ATB Uchtepa filiali boshqaruvining holati tahlili.	23
2.2 “O’zsanoatqurilishbank” ATB Uchtepa filiali aktivlari va ular bilan bog’liq tavakkalchiliklarni boshqarish tahlili	30
III BOB. TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA TAVAKKALCHILIKLARNI BOSHQARISHNING ISTIQBOLLI YO’NALISHLARI	39
3.1 Tijorat banklari tavakkalchiliklarini boshqarishda yo’l qo’yiladigan kamchiliklar va unlarni bartaraf etish yo’llari.	39
3.2 Tijorat banklari tavakkalchilikni boshqarishda xorij tajribasini amaliyotga tadbig’i.	44
3.3 Tijorat banklarida tavakkalchiliklarini boshqarishning takomillashtirish yo’nalishlari.	48
XULOSA	55
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI	59

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi paytda O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish jarayoni tijorat banklarining barqaror faoliyat yurituvchi tizimini yaratishni ko'zda tutadi. Chunki tijorat banklari bozor infratuzilmasining muhim tarkibi qismlaridan biri hisoblanadi. Ularning barqarorligi davlat ahamiyatiga egadir. Bu borada prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Bank tizimidagi islohotlar iqtisodiyotimizning barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashda eng muhim omil bo'ldi. Buning natijasida tijorat banklarining jami kapitali 25 foizga oshdi. Bank tizimining mustahkamlanishi 2014 yilda Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasini 12 foizdan 10 foizga, tijorat banklarining kreditlar bo'yicha foiz stavkasini ham shunga mos ravishda kamaytirish uchun zarur imkoniyatlar tug'dirdi"¹.

Bundan tashqari rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotidagi barcha operatsiyalar banklar orqali amalga oshiriladi va bu albatta banklarda tavakkalchiliklarni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Agar banklar tavakkalchiliklarni boshqarishda kamchiliklarga yo'l qo'ysalar mamlakat bank tizimining inqirozli holatining avj olishiga va moliya bozorining boshqa segmentlariga salbiy ta'sirini ko'rsatishi mumkin. Masalan, 2008 yilda boshlanib hali-xanuz davom etayotgan jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Shu sababli Prezidentimiz I.Karimov "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" nomli asarlarida bugungi kunda moliyaviy inqiroz holati va uning ta'sirida kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlarga doir fikrlarini bildirib, quyidagi xulosalarni ta'kidlab o'tganlar: "...Ikkinchidan, avj olib borayotgan global moliyaviy inqiroz jahon moliya-bank tizimida jiddiy nuqsonlar mavjudligi va ushbu tizimni tubdan isloh qilish zarurligini ko'rsatdi. Ayni vaqtda bu inqiroz asosan o'z korporativ manfaatlarini ko'zlab ish yuritib kelgan, kredit va qimmatbaho qog'ozlar bozorlarida turli spekulativ

¹ I.A.Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.Xalq so'zi, 17 yanvar 2015 y.

amaliyotlarga berilib ketgan banklar faoliyati ustidan yetarli darajada nazorat yo'qligini ham tasdiqladi. Uchinchidan, moliyaviy-iqtisodiy inqirozning har qaysi davlatdagi miqyosi, ko'lami va oqibatlari qanday bo'lishi ko'p jihatdan bir qancha omillardan kelib chiqadi. Ya'ni, bu avvalo, ana shu davlatning moliya-valyuta tizimi nechog'liq mustahkam ekaniga, milliy kredit institutlarining qay darajada kapitallashuvi va likvidligi (to'lov imkoniga), ularning chet el va korporativ bank tuzilmalariga qanchalik qaram ekaniga, shuningdek, oltin-valyuta zahirasi hajmi, xorijiy kreditlarni qaytarish qobiliyati va pirovard natijada - mamlakat iqtisodiyotining barqarorlik, diversifikasiya va raqobatga bardoshlik darajasiga bog'liq...".² deb ta'kidlab o'tganlar.

Shu sababli O'zbekistonda bozor munosabatlari tamoyillarining amal qilishi tijorat banklaridan o'z faoliyatlari bilan bog'liq tavakkalchiliklarni boshqa xo'jalik subyektlariga nisbatan ko'proq o'rganishlarini talab etadi. Chunki tijorat banklari o'z faoliyatlari bilan bir tomondan, o'z aksiyadorlari oldida javobgar bo'lsalar, ikkinchi tomondan, o'z mablag'larini ishonib topshirgan va bank xizmatlaridan foydalanayotgan mijozlar oldida majburiyatga egadirlar. Shu sababli banklar mablag'larni doim iqtisod qilib ish olib boradilar. Banklar faoliyatidagi bunday ehtiyotkorlikni mashhur yozuvchi Mark Tven "Bankir shunday odamki, u quyosh chiqib turganda sizga soyabonini berib turadi-yu, yomg'ir yog'ishi bilan uni sizdan tortib oladi" deb ta'riflangan edi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Bitiruvmalakaviy ishining umumiy maqsadi bo'lib, tijorat banklari faoliyatida yuzaga keluvchi tavakkalchiliklar, ularning turlari, tahlili va ularni hisoblash yo'llari, tijorat banklarining aktiv va passiv operatsiyalari bo'yicha yuzaga keluvchi tavakkalchiliklar, kreditlash jarayoni bilan bog'liq tavakkalchiliklar, mijozning kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlari va ularni takomillashtirish yo'llari, tijorat banklari faoliyatida yuzaga keluvchi boshqa tavakkalchiliklar va ularni boshqarish masalalarini yoritib berishda iborat.

² I.A.Karimov "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" Toshkent "O'zbekiston" 2009 yil.

Bitiruv malakaviy ishinig vazifalari quyidagilardan iborat:

Tijorat banklari tavakkalchiliklarini boshqarishning nazariy asoslarini o'rganish;

Tijorat banklari tavakkalchiliklarining turlari va boshqarish usullarini tadqiq qilish;

Tijorat banklarda tavakkalchiliklarni boshqarish tizimi tarkibini yoritish;

Tijorat banklarida tavakkalchiliklarni boshqarishning amaldagi holatini tahlil qilish;

Tijorat banklarida tavakkalchiliklarni boshqarishdagi kamchiliklarni aniqlash;

Bitiruv malakaviy ishining obykti. O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari.

Tadqiqot predmeti bo'lib O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tavakkalchiliklarini boshqarish faoliyatida vujudga keladigan tashkiliy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar yig'indisi hisoblanadi.

Mavzuning nazariy-amaliy ahamiyati. Tijorat banklari faoliyatida tavakkalchiliklarni aniqlash, ularni baholash va boshqarish bo'yicha boshqaruv qarorlarini ishlab qilish, nazorat qilish, tavakkalchilikni boshqarish strategiyasini ishlab chiqish usullari to'g'risida nazariy va amaliy bilimlar doirasini kengaytiradi. Banklarda tavakkalchilikni boshqarish takomillashtirish masalalari xorijiy olimlardan O.I.Lavrushin Sh.Hefferman, J.Hull, S.Rouz, Ye.Jukov, G.Korobova, T.Kox, G.Panova kabi olimlarni asarlaridagi ma'lumotlar atroflicha o'rganilgan.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusini boyitish maqsadida M.Sharifxo'jayev A.O'lmasovlar kabilarning ilmiy izlanishlari va o'quv adabiyotlaridan keng foydalanilgan.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi 62 betdan iborat bo'lib, uning tuzilmasi kirish, uch bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, hamda 4 ta jadval, 2 ta rasm, 1 ta diagrammani o'z ichiga oladi.

I BOB. TIJORAT BANKLARI TAVAKKALCHILIGINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1 Tijorat banklari tavakkalchiligining mohiyati va ularni boshqarishga doir talablar

Hozir kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday iqtisodiy faoliyat foyda olishga qaratilgan. Shu jumladan tijorat banklari ham o'z faoliyatlaridan ko'zlangan maqsad birinchi navbatda foyda olishdir. Bu esa albatta tavakkalchilik bilan bog'liq bo'ladi. Tavakkalchilik tushunchasi iqtisodchi olimlar tomonidan turlicha talqin etilgan. Ilmiy-iqtisodiy adabiyotlarda tavakkalchilikga boshqacha bir nazar bilan qaralsa, qonunchilik hujjatlarida boshqa jihatdan qoraladi. Rus tili lug'atida tavakkalchilik so'zi «tavakkalchilik» deb atalib, qadimiy grek so'zidan olingan. U kemalarni halokatga olib boruvchi va odamlarning o'limiga, mol-mulklarning cho'kib ketishiga sababchi qoyani bildirib, «qoyalar orasidan shamol va boshqa to'siqlarga chap berib suzib o'tmoq» ma'nosini anglatgan. Hozirgi kunda yangi ilmiy adabiyotlarda bu so'z «xavf ostida qolmoq» degan yangi ma'noda qo'llanilyapti. Mazkur tushuncha Rossiyada XIX asrning boshlarida tarqalgan. O'zbekistonda ham Sobiq Ittifoq davrida qo'llanilib kelingan va «tavakkalchilik» so'zi ma'nosi bilan bir qatorda «xavf ostida qolmoq» ma'nosini ham bildiradi. Bank tavakkalchiliklari to'g'risida iqtisodchi olimlarning fikrlari xilma-xil bo'lib, ular bu tushunchaning mohiyatini turlicha talqin qilganlar. Buning sababi shundaki, tavakkalchilik keng ma'noli, faoliyatning, jarayonlarning turli bosqichlarida uchrab turuvchi ko'p qirrali tushunchadir. Bank tavakkalchiligining mohiyati ko'pgina mahalliy iqtisodchilar tomonidan masalan, «Kredit. 100 savolga – 100 javob» kitobi muallifi Yo.Abdullayev, T.Boboqulov bank tavakkalchiligi, «kredit havf-xatari», «Iqtisodiyot nazariyasi» kitobi muallifi A.O'lmasov, M.Sharifxo'jayevlar tomonidan esa «bank xatari» deb yuritiladi. Iqtisodchi olim O.I.Lavrushin «Bank tavakkalchiligi ehtimoliy hodisaning qiymat o'lchovi bo'lib, u yo'qotishlarga olib keladi» degan fikrni ilgari suradi. Rossiyalik yana bir iqtisodchi G.Panova «Tavakkalchilik kutilmagan hodisalar yuzaga kelganida

yo‘qotish xavfi yoki imkoniyatidir» deb ta’rif beradi. U o‘z ta’rifi orqali ikki asosiy yo‘nalishni asoslab bermoqchi bo‘ladi. Bular birinchidan, Professor O.Lavrushinning tavakkalchilik to‘g‘risidagi fikri bilan hamohang bo‘lib, u ham tavakkalchilik bu yo‘qotishlarni ifodalaydi deb o‘qtirsa, ikkinchidan tavakkalchilik bu kutilmagan hodisa ekanligini ta’kidlamogchi. Tavakkalchilik - bu ma’lum maqsadni ko‘zlagan holda olib borilayotgan faoliyat natijasiga bo‘lgan ishonchsizlik ba’zan qoniqarsiz tugashi natijasidagi yo‘qotishlardan iboratdir. Masalan, berilgan kredit bo‘yicha to‘lovlarning amalga oshmasligi natijasida bank foydasining kamayishi, yoki berilgan kafolat xatlari bo‘yicha to‘lovlarni amalga oshirishga to‘g‘ri kelishi va shu bilan bir qatorda bankning resurs ba’zasining kamayishi. Tavakkalchiliklar bank faoliyatida o‘lchash mumkin bo‘lgan ko‘rsatkichdir va ular doim bankning bajarayotgan operatsiyalardan olgan zarariga, yo‘qotgan daromadiga teng bo‘ladi.

Moliya-kredit lug‘atida bank tavakkalchilikgi “kredit muassalari tomonidan amalga oshiriluvchi bank operatsiyalari xarakretidan kelib chiquvchi zarar ko‘rish xavfi”³ deb qaraladi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2011 yil 25 mayda 2229-son bilan ro‘yxatga olingan ”Tijorat banklarining bank tavakkalchiliklarini boshqarishga nisbatan qo‘yiladigan talablar to‘g‘risi”da nizomga muvofiq, bank tavakkalchiligi - bank faoliyatiga ta’sir qiluvchi iqtisodiy, moliyaviy, ijtimoiy, siyosiy, texnologik ichki va (yoki) tashqi omillarga bog‘liq bo‘lgan holatlar natijasida bank faoliyatiga xos bo‘lgan moliyaviy zararlar ko‘rish va (yoki) bank likvidligi (bankm o‘z majburiyatlarini vaqtida bajarish qobiliyati)ni to‘liq yoki qisman yo‘qotish xavfining mavjudligi” deb ta’riflangan.

Bank faoliyatida tavakkalchiliklarning yuzaga kelishining quyidagi sabablari mavjud:

- bozorni yaxshi o‘rganmaslik;
- resurslarni jalb qilish va ularni joylashtirish sohasida ma’lumotlarning yetarli emasligi;

³ Abdullayeva Sh. Bank risklari va ularni kreditlash. – T.: Moliya, 2009., 23b.

-kreditlanadigan loyiha, ob'ekt va mijozlar to'g'risida, ularning moliyaviy ahvoli to'g'risidagi ma'lumot va axborotlarning to'liq emasligi;

-tarmoqlar faoliyati xususiyatining inobatga olinmasligi;

-subyektlar yoki mijozlarning ongi, saviyasi, mablag'lardan foydalanish bo'yicha bilimi va maqsadlarining turli xilligi va boshqalar hisoblanadi. Shu sababli bank tavakkalchiliklarining iqtisodiy kategoriya sifatida ta'rifi uning ob'ektiv va subyektiv sabab va oqibatlarini o'zida ifoda qilmog'i lozim. Yuqoridagilarga asoslangan holda, bank tavakkalchilikgi bank faoliyatini amalga oshirish jarayonida bank mablag'larining bir qismini yo'qotish, yoki daromad ololmaslik sharoitida ijobiy natijaga umid qilib, bank operatsiyalarini (depozit, kredit, investitsiya, valyuta) o'tkazishdir, degan ta'rif kelib chiqadi. Bunda birinchidan, banklarning turli operatsiyalari, xoh u resurslar jalb qilish bilan bog'liq operatsiya bo'lsin, xoh u mablag'larni investitsiya qilish yoki kredit berish, yuqori daromad olish maqsadida xavfli valyuta operatsiyalarini o'tkazish bo'lsin bankning barcha operatsiyalari uning ma'lum bir yo'qotishlar bilan bog'liq sharoitda ekanligini ta'kidlab o'tish lozim. Ikkinchidan, bank doimo har bir operatsiyasi unga ijobiy natija keltirishga umid qilgan holda bir turdagi operatsiyani amalga oshiradi. Bank faoliyatida tavakkalchiliklar kelajakda amalga oshiriladigan operatsiyalarni oldindan obdon tahlil qilmaslik, holatni yaxshi o'rganmaslik, mablag'larni samarali joylashtirmaslik, bozor imkoniyatlariga to'g'ri baho bermaslik, bank faoliyati uchun salbiy natijalarga olib kelishi, mumkin bo'lgan boshqa holatlarni oldindan seza olmaslik tufayli yuzaga kelishi mumkin. Zararlarning yuqori bo'lishi banklarda yo'qotishlar bo'lishiga olib keladi. Yo'qotishlar esa bank foydasini kamaytiruvchi omil hisoblanib, u bank faoliyatining tavakkalchilik darajasiga bog'liq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2011 yil 25 mayda 2229-son bilan ro'yxatga olingan "Tijorat banklarining bank tavakkalchiliklarini boshqarishga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risi"da nizomga ko'ra,

Bank tavakkalchiligini boshqarish - bank o'z faoliyatini yuritishi va bank operatsiyalarini o'tkazishda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan tavakkalchiliklarni

aniqlash, ularning oldini olish, bartaraf etish kamaytirish va ko`rilishi mumkin bo`lgan zararlarni boshqa moliyaviy vositalar orqali qoplash bo`yicha bank tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar majmui tushuniladi. Bank tavakkalchiliklarini boshqarish tizimining ob`ekti banklar faoliyatida yuzaga keluvchi tavakkalchiliklar bo`lsa, uning subyekti sifatida tavakkalchilikkaga o`z ta`sirini o`tkazuvchi gurux, bank bo`limi hodimi yoki menejeri hisoblanadi.

Bankning tavakkalchilikni boshqarish strategiyasi bankning barcha imkoniyatlaridan to`la foydalanish, bankni rivojlantirish istiqbollarini belgilab berish va bank tavakkalchiliklarini oldini olib banklar faoliyatining samaradorligini oshirishga imkon yaratadi.

Bank tavakkalchiliklarini boshqarishga doir talablar

1. Banklardan bank tavakkalchiliklarini boshqarishda quyidagilar talab etiladi:

bank faoliyati va uning atrofidagi muhitning o`ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi, aniq ifodalangan va hujjatlashtirilgan tavakkalchiliklarni boshqarish siyosatini ishlab chiqish;

bank tavakkalchiligini boshqarish vazifalari yuklangan tarkibiy bo`linmani tashkil etish;

bank tavakkalchiligini boshqarish bo`linmasini tajribali va malakali mutaxassislar bilan ta`minlash;

bank yangi xizmatlarni joriy qilishda, yirik bitimlarni tuzishda, xorijiy moliya institutlari bilan aloqa o`rnatishda, investitsiyalar kiritishda, chet el valyutasidagi mablag`larni aktivlarga joylashtirishda, yangi xodimlarni ishga qabul qilishda hamda boshqa bank tavakkalchiligi yuzaga kelishi mumkin bo`lgan bank operatsiyalarini tavakkalchilikni yuzaga kelishi va uni bartaraf etish, oldini olish, kamaytirish nuqtai nazaridan bank tavakkalchiligini boshqarish bo`linmasi bilan kelishuvni amalga oshirish

2. Bank tavakkalchiligini boshqarish bo`linmasi xodimlari quyidagi talablarga javob berishlari lozim:

bajarayotan vazifalari xususiyatiga mos bo`lgan oliy ma`lumotga ega bo`lishi;

bankning kredit, valyuta, depozit va qimmatli qog'ozlar bo'yicha operatsiyalari, buxgalteriya hisob va hisoboti, yuridik xizmati va axborotlashtirish bo'limlarida kamida ikki yil ish stajiga va kasbiy malakaga ega bo'lishi (bo'linma rahbari uchun bankning mazkur bo'limlarida kamida ikki yil rahbarlik lavozimida yoki bo'linmada kamida to'rt yil ish staji va kasbiy malakaga ega bo'lish talab etiladi);

tegishli xodimlar milliy va xalqaro buxgalteriya hisobi, xalqaro audit standartlari qoidalarini qo'llash, bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tamoyillari va standartlari hamda xalqaro reyting kompaniyalarining bank faoliyatini baholash uslubiyoti bo'yicha bilimlarga ega bo'lishi va bank tavakkalchiliklari bo'yicha maxsus kurslarda malakalarini oshirishi.

3. Quyidagilar bank tavakkalchiligini boshqarish bo'linmasining vazifalari hisoblanadi:

bank faoliyatida uchrashi mumkin bo'lgan barcha tavakkalchiliklar ro'yxatini yuritish, ularning yuzaga kelish omillarini o'rganish va monitoring qilish hamda tavakkalchiliklarni boshqarish bo'yicha barcha choralarni ko'rish;

bank tavakkalchiliklarini baholash;

bank faoliyatida bank tavakkalchiliklarini boshqarish borasida qabul qilinishi lozim bo'lgan choralar, talablar va me'yorlarni bank Boshqaruvi organi muhokamasiga kiritish;

normativ-huquqiy hujjatlar talablariga asosan bank tavakkalchiliklarini qoplash uchun zahiralarini shakllantirish yuzasidan choralar ko'rish;

bank xizmatlari va operatsiyalarini amalga oshirish bo'yicha bankning ichki hujjatlari loyihasini ishlab chiqish va takliflar kiritish;

joriy qilinayotgan yangi bank xizmatlari va operatsiyalari, bitimlar yuzasidan takliflar tayyorlash;

bank xizmatlarini ko'rsatish va operatsiyalarini amalga oshirish tartiblarini takomillashtirish;

bank kredit (investitsiya) portfelini kredit (investitsiya) turi, qarzidor (emitent)ning iqtisodiy tarmog'i, hududi, kredit ta'minoti, maqsadi, foizi va

undirish muddatlari bo'yicha alohida-alohida monitoring o'rnatish va ularni tahlil qilish, muammoli kreditlarni, ularning iqtisodiyotning qaysi sohasiga tegishligini, muammoga aylanganlik sababini, ushbu kreditlarni ajratish va monitoring qilish jarayonlarini o'rganish natijasida tegishli xulosalar qilish va takliflar tayyorlash;

kredit tavakkalchiligini aniqlash va oldini olish maqsadida kredit olgan shaxslar bo'yicha ma'lumotlarni umumlashtirish va tegishli xulosalar qilish;

bank axborotlari bazasiga ruxsatsiz kirishdan ishonchli himoyalashni ta'minlovchi dasturlarni ishlab chiqish va takomillashtirishda ishtirok etish;

bank xodimlari tomonidan bank xizmatlarini ko'rsatishda va bank operatsiyalarini amalga oshirishda o'z lavozim majburiyatlari va vazifalariga hamda normativ-huquqiy hujjatlarga qat'iy amal qilinishini ta'minlash yuzasidan choralar ko'rish;

bankning moliyaviy holatini, likvidliligini stress-testdan o'tkazish va mijozlarni scoring tahlil qilish uslublari ishlab chiqish va ularning qo'llanilishini ta'minlash;

bankda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan barcha xizmat (omonat va kredit) turlari va operatsiyalar ro'yxatini yuritish;

jahondagi moliya va iqtisodiy sohalarda, shu jumladan, milliy iqtisodiyotda yuz berayotgan o'zgarishlarni o'rganish, kuzatish va lozim bo'lsa. takliflar tayyorlash;

bank menejmenti va texnologiyalari, shu jumladan. bank tavakkalchiliklarini boshqarish bo'yicha xalqaro va xorijiy banklar tajribalarini va bu borada yangiliklarni o'rganish va takliflar tayyorlash;

har yarim yilda, bank Boshqaruvi va bank Kengashining tavakkalchiliklarni nazorat qilish Qo'mitasi yig'ilishlarida muhokama qilish uchun bank tavakkalchiliklarini boshqarish borasida olib borilayotgan ishlar natijalari bo'yicha hisobotlar berish.⁴

⁴O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2011 yil 7 maydagi 14/2-sonli "Tijorat banklarining bank tavakkalchiliklarini boshqarishiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi nizomi.

1.2 Tijorat banklari tavakkalchiliklarining turlari va ularni boshqarish xususiyatlari

Bank tavakkalchiliklarini boshqarishni samarali tashkil etish ularni muayyan belgilari bo'yicha aniq guruhlarga bo'lish bilan bog'liq. Tavakkalchiliklarning ilmiy asoslangan tasnifi ularni har birining umumiy tizimdagi o'rnini belgilash, ularni boshqarishning samarali usullarini qo'llash imkonini beradi.

Tavakkalchilik turlari bir-biri bilan bog'liq bo'lib, ular banklar faoliyatiga turli darajada ta'sir ko'rsatadi. Bu holat tavakkalchiliklarning odini olish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va tavakkalchilikning aniq bir turlarini tahlil qilish, yuzaga kelishi sabablarini aniqlashni qiyinlashtiradi.

Bank faoliyati natijalariga ta'sir etish darajasiga ko'ra bank tavakkalchiliklarini past, o'rtacha va to'liq tavakkalchiliklarga bo'lish mumkin. Bank tavakkalchilikning darajasi bank yo'qotishlariga olib boruvchi voqealar ehtimoli bilan xarakterlanadi. Ular foizlarda yoki muayyan koeffitsientlarda ifodalanadi. Chet el tijorat banklari, jumladan, Britaniya banklari tavakkalchiliklarni 5 toifaga ajratadi. Bular:

1. A toifa – kichik yoki nol tavakkalchilik.
2. B toifa – oddiy tavakkalchilik
3. V toifa – oshgan tavakkalchilik
4. G toifa – katta yoki yuqori tavakkalchilik.
5. D toifa – nomaqbul tavakkalchilik

Vujudga kelish shakllariga ko'ra bank tavakkalchiliklari: tizimli yoki tizimsiz tavakkalchiliklarga bo'linadi. Tizimli tavakkalchiliklar – bank tizimidagi umumiy vaziyat natijasida bankning moliyaviy ahvoli o'zgarishi ehtimoli sifatida ta'riflanadi. Tizimsiz yoki nomuntazam tavakkalchiliklar – bank tizimida umumiy ahvol barqaror saqlangan holda alohida olingan bankning moliyaviy ahvoli yomonlashish ehtimolini bildiradi. Bank tavakkalchilikining bu turlari odatda bir-biri bilan juda bog'liq bo'lganligi uchun amaliyotda bu turdagi tavakkalchiliklarni bir biridan ajratish juda qiyin.

Vujudga kelish sabablariga ko'ra tavakkalchiliklar: sof va sun'iy tavakkalchiliklarga bo'linadi. Sof tavakkalchiliklar - ko'pincha ob'ektiv xususiyatga ega bo'ladi va salbiy («0») natijaga erishish ehtimolini bildiradi. Bu tavakkalchiliklarga tabiiy, ekologik, transport tavakkalchiliklari, tijorat tavakkalchilikining bir qismi kiradi. Chayqovchilik tavakkalchiliklari iqtisodiy faoliyat, jumladan bank faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. U ijobiy yoki salbiy natijaga erishish imkoniyatida namoyon bo'ladi. Bu tavakkalchiliklarga paydo bo'lish sabablariga qarab tabiiy, ekologik, siyosiy va boshqa kategoriyalar vositasida yuzaga keluvchi moliyaviy tavakkalchiliklar kiradi.

Ta'sir vaqtiga ko'ra tavakkalchiliklarni: retrospektiv, joriy yoki istiqboldagi tavakkalchiliklarga ajratish mumkin. Retrospektiv tavakkalchiliklar – bank faoliyatining o'tgan davrdagi turli tavakkalchiliklarga bog'liqligini ifodalaydi va joriy hamda istiqboldagi tavakkalchiliklarni baholashga yordam beradi.

Boshqarish usuli buyicha bank tavakkalchiliklari: ochiq va yopiq bo'ladi. Ochiq tavakkalchiliklarni – tartibga solib bo'lmaydi. Yopiq tavakkalchiliklarni – esa boshqarish mumkin. Yopiq tavakkalchiliklar diversifikatsiya siyosatini o'tkazish yo'li bilan tartibga solinadi, ya'ni bunda bank operatsiyalari umumiy hajmini saqlash maqsadida bir necha mijozlarga berilgan kreditlarni kichik summalarda keng miqyosda taqsimlash yoki yirik kreditlarni konsorsional asosda berish; depozit sertifikatlarini joriy qilish; qayta hisobga olish operatsiyalarini kengaytirish, kredit va depozitlarni sug'urtalash amalga oshiriladi. Banklarda ko'pincha mijoz tanlashga nomunosib yondashuv natijasida balanslashmagan likvidlilik tavakkalchiligi paydo bo'lib, u beqaror iqtisodiy vaziyatdagi tashkilotlarni kreditlashga ustunlik berilganda kelib chiqadi.

Hisoblash usuliga ko'ra tavakkalchiliklarni: umumiy yoki xususiy tavakkalchiliklarni ajratish mumkin. Umumiy tavakkalchilik bank tavakkalchilikining hajmi, uning daromadi va bank likvidligi me'yorlariga bog'liq ravishda baholanadi yoki taxmin qilinadi. Xususiy tavakkalchilik

alohida bank operatsiyasi yoki ularning guruhlari bo'yicha tavakkalchilik koeffitsientlari shkalasi asosida baholanadi.

Vujudga kelish sohasiga ko'ra bank tavakkalchiliklari: tashqi va ichki tavakkalchiliklarga bo'linadi.

Tashqi tavakkalchiliklar – makromuhit darajasida yuzaga keladi. Ular bank faoliyati bilan bevosita bog'liq emas. Ichki tavakkalchiliklar – bankning faoliyati natijasida yuzaga keladi.

Tavakkalchiliklarni ichki va tashqi hamda sof va chayqovchilik tavakkalchiliklariga bo'lib tahlil qilishda ularning o'xshashlik tomonlarini ochib berishi mumkin. Haqiqatdan ham tashqi va sof tavakkalchiliklar tushunchasi mohiyati bir-biriga o'xshab ketadi. Biroq ichki tavakkalchilik chayqovchilik tavakkalchilikidan kengroq bo'lib keyingisini ham o'z ichiga oladi. Tashqi tavakkalchiliklar darajasiga juda ko'p omillar ta'sir ko'rsatadi. Ular orasida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va tabiiy-iqlim tavakkalchiliklarini alohida ajratib ko'rsatish zarur. Tashqi tavakkalchiliklarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular bank faoliyati natijalariga ham bevosita, ham bilvosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu bank oldida pul majburiyatlariga ega bo'lgan xo'jalik subyektlarining ushbu tavakkalchilikga aloqadorligi va munosabatiga bog'liq.

Bank operatsiyalari xususiyatiga ko'ra tavakkalchiliklar:

- balans operatsiyalari tavakkalchiligi;
- balansdan tashqari operatsiyalar tavakkalchiligi;
- moliyaviy xizmatlarni amalga oshirish bilan bog'liq tavakkalchiliklarga bo'linadi.

O'z navbatida balans operatsiyalari tavakkalchiliklari bankning aktiv operatsiyalari tavakkalchiligi, bankning passiv operatsiyalari tavakkalchiligi, aktivlar va passivlarni boshqarish sifati bilan bog'liq tavakkalchilikga bo'linadi. Aktiv operatsiyalar tavakkalchilikiga kredit, hisob-kitob, kassa, bozor, valyuta, lizing, faktoring tavakkalchiliklari, moliyalash va investitsiyalar bilan bog'liq tavakkalchiliklar kiradi.

Bank faoliyati va uning natijalariga ta'sir etish omillariga qarab bank

tavakkalchiliklarini bir necha toifalarga bo'lish mumkin. Umumlashtirgan holda ularni:

past darajadagi tavakkalchiliklar;

o'rtacha darajadagi tavakkalchiliklar;

yuqori darajadagi tavakkalchiliklarga bo'lish mumkin.

Moliyaviy xizmatlarni amalga oshirish bilan bog'liq tavakkalchiliklar:

“Operatsion va texnologik tavakkalchiliklar - bu tavakkalchiliklar bank texnika-texnologiyasida uchrab turadigan axborot tizimidagi uzilishlar, kompyuter tizimidagi yo'qotishlar, hujjatlarning yo'qotilishi, bank xodimlari faoliyatida yo'l qo'yilgan xatolar tufayli vujudga keladi.

Innovatsiya tavakkalchiligi - bu tavakkalchilik ma'lum bir sabablar tufayli bankning innovatsiyaga yo'llagan mablag'lari mo'ljallangan samara bermasa yoki yo'qotilgan hollarda yuzaga keladi.

Bank xavfsizligi tavakkalchiligi - bu tavakkalchilik bank binosi, undagi mavjud axborot g'amlamasi, kompyuter tarmoqlarining xavfsizligi bilan bog'liq omillar ta'sirida yuzaga keladi.”⁵

Kredit tavakkalchilik - bu tavakkalchilik mijoz tomonidan asosiy qarz summasini va kredit bo'yicha foizlarni to'lay olmaslik ehtimoli bo'lganda yuzaga keladi.

Hisob-kitob tavakkalchiliklari - bu tavakkalchiliklar bankning kelishilgan shartnoma bo'yicha mijozning talabiga binoan hisob-kitoblarni o'z vaqtida o'tkaza olmasligi sharoitida yuzaga keladi.

Kassa tavakkalchiliklari - bu tavakkalchiliklar bank kassasi orqali o'tuvchi naqd pullarni saqlanishi bilan bog'liq xavfli holatlar natijasida yuzaga chiqadi.

Bozor tavakkalchiligi - bu tavakkalchiliklar nisbiy bozor narxlari darajasining keskin o'zgarishi natijasida bank aktivlari haqiqiy qiymatining pasayishini anglatadi. Bu bozor narxlari nomaqbul o'zgarishi oqibatida ehtimoliy zarar ko'rilishi tufayli ro'y beradi.

Valuta tavakkalchiligi - bu tavakkalchilik valyuta almashtirish kursining

⁵ Y.Abdullayev, T.Qoraliyev va boshqalar. “Bank ishi”. O'quv qo'llanma. T: Iqtisod moliya. 2010. 410-411 b.

o'zgarishi natijasida chet el valutasida olib boriladigan operatsiyalar bo'yicha yo'qotishlar yoki yuqori foyda olish ehtimolini ifodalaydi.

Investitsiya tavakkalchiligi - bu tavakkalchilik qimmatli qog'oz emitentining moliyaviy holati yomonlashishi oqibatida investitsiyalar portfelining kamayishi yoki qo'yilgan mablag'larni yo'qotish tavakkalchilikini ifodalaydi.

Lizing operatsiyalari bo'yicha tavakkalchilik - bu tavakkalchilik ijarachining bankdan olgan mulkidan samarali foydalana olmasligi, shuningdek, shartnomada ko'rsatilgan to'lovni o'z vaqtida amalga oshira olmasligi natijasida yuzaga keladi.

Faktoring operatsiyalari bo'yicha tavakkalchilik - bu tavakkalchilik bankning uchinchi shaxsdan sotib olgan qarzdorning majburiyatlari bo'yicha to'lovni o'z vaqtida amalga oshira olmaslik natijasida yuzaga keladi.

Bank portfeli tavakkalchiligi - bu tavakkalchiliklar qimmatli qog'ozlarning ayrim turlari hamda ssudalarning barcha kategoriyalari bo'yicha zarar ko'rish ehtimolligi bilan bog'liq holda yuzaga keladi.”⁶

Aktivlar va passivlarni boshqarish sifati bilan bog'liq tavakkalchiliklar:

Balanslashmagan likvidlik tavakkalchiligi - bu tavakkalchilik bankning resurs sifatida jalb qilgan mablag'lari bilan kreditga bergan mablag'lari summasi, muddati, foiz stavkasining darajasi bo'yicha mos kelmasligi tufayli yuzaga keladi.

Foiz tavakkalchiligi - bu tavakkalchilik bankning kreditga bergan mablag'lari bo'yicha oladigan foiz stavkasiga nisbatan jalb qilgan resurslari bo'yicha yuqori stavkalar bilan to'lashga majbur bo'lgan holda yuzaga keladi.

Foyda ololmaslik tavakkalchiligi - bu tavakkalchilik bankning o'z resurslarini yo'qotishi, ulardan samarali foydalana olmasligi natijasida yuzaga keladi.

Suiste'mol tavakkalchiligi - bu tavakkalchilik bank boshqaruvchilari, xodimlari yoki mijozlari o'z vazifalarini suiste'mol qilib, shaxsiy manfaatlari

⁶ Y.Abdullayev, T.Qoraliyev va boshqalar. "Bank ishi". O'quv qo'llanma. T: Iqtisod moliya. 2010. 413 b

yoʻlida amaldagi qonunchilikka, bank faoliyatini tartibga solib turuvchi meʼyoriy hujjatlar talablariga zid ravishda faoliyat koʻrsatishlari natijasida bank katta yoʻqotishlarga uchrashi hatto, inqirozga uchrashi mumkin.

Likvidlik tavakkalchiligi - bu tavakkalchilik bankning oʻz majburiyatlari boʻyicha oʻz vaqtida pul toʻlashga qobil emasligi bilan bogʻliq boʻlib, buning oqibatida majburiyatlar oshganda ham mablagʻ olish imkoni boʻlmaganligi sababli zarar koʻriladi.”⁷

Bank tavakkalchiligini boshqarishda banklar bajaradigan operatsiyalarining samaradorligini aniqlay olish kerak. Bunda bankning kredit siyosati, investitsiya, valyuta siyosati va boshqa faoliyat turlari boʻyicha optimal qarorlar qabul qilishga erishish, mijozlarning xoʻjalik faoliyati va ularning moliyaviy ahvoli tarmoqlar faoliyatining xususiyatlarini oʻz ichiga olishi lozim. Bank tavakkalchiligini boshqarishda bank boshqaruvchisining asosiy vazifasi bank faoliyatini olib borishda yuzaga keladigan daromad bilan unda yuzaga keluvchi tavakkalchiliklar oʻrtasidagi optimal variantini topishdan va puxta strategiya tuzishdan iborat.

Bank tavakkalchiliklarini boshqarish strategiyasini ishlab chiqishda tavakkalchiliklarning quyidagi asosiy turlariga eʼtiborni jalb qilish lozim :

1. Depozitlarni shakllantirish tavakkalchiligi;
2. Yangi faoliyat turi tavakkalchiligi;
3. Lizing kelishuvi tavakkalchiligi;
4. Qarzdorning oʻz moliyaviy majburiyatlari yuzasidan bajarmagan faoliyat bilan bogʻliq kredit tavakkalchiligi;
5. Bozor foiz stavkalarining tebranish ehtimoli bilan bogʻliq foiz tavakkalchiliklari;
6. Qimmatli qogʻozlarning qadrsizlanish ehtimoli bilan bogʻliq bozor tavakkalchiligi;
7. Valyuta kurslari tebranishi bilan bogʻliq valyuta tavakkalchiliklari. Bank bunday tavakkalchilikka chet el valyutasida turli xildagi operatsiyalarni

⁷ Y. Abdullayev, T. Qoraliyev va boshqalar. “Bank ishi”. Oʻquv qoʻllanma. T: Iqtisod moliya. 2010. 410-411 b.

o'tkazish va valyuta oldi-sotdisi, valyutaviy kreditlar berish natijasida duch keladi.

Bank tavakkalchiliklarini boshqarish strategiyasi bankning barcha imkoniyatlaridan to'la foydalanish, bankni rivojlantirish istiqbollarini belgilab beradi va bank tavakkalchiliklarining oldini olib banklar faoliyatining samaradorligini oshirishga imkon yaratadi. Tavakkalchiliklarni boshqarish strategiyasining maqsadi va vazifalari ko'p darajada bank ishlaydigan tashqi iqtisodiy muhitga bog'liq. Oxirgi yillarda bank faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi iqtisodiy muhit sifatida inflyatsiyaning mavjudligi, banklar va ularning shu'balarining sifatli faoliyat ko'rsatishlari, banklar faoliyatining Markaziy bank tomonidan muvofiqlashtirilib borilishi, banklar yangi xizmatlarining yuzaga kelishi, banklar o'rtasidagi raqobatning yuzaga kelishi va yirik banklar tomonidan mayda kredit muassasalarining qamrab olinishi, xo'jalik subyektlari faoliyatining o'zgarishi, bozor munosabatlariga moslashuvi natijasida aylanma kapitallarga bo'lgan ehtiyojning o'sishi natijasida bankning kredit resurslariga bo'lgan talab ortib borishi tufayli faqat bank tavakkalchiliklarini o'z vaqtida sezish va boshqarish yo'li bilan bank faoliyatining ijobiyligiga erishish mumkin.

1.3 Tijorat banklari tavakkalchiliklarini hisoblash usullari

Bank amaliyotida muhim muammolardan biri –bu bank tavakkalchiliklarini baholashdir. Uni to'g'ri baholash, uning ro'y berishini o'z vaqtida oldini olish bo'yicha tegishli choralar ishlab chiqish imkoniyatini beradi. Tavakkalchiliklarni aniqlash ularning darajasini hisoblashdan boshlanadi. Tavakkalchilikdarajasi muayyan faoliyatda maqsad nimaga yo'naltirilganiga qarab zararlar bo'lishini yoki xo'jalik subyektining faoliyat natijasi ma'lum bir yo'qotishlar bilan tugashi yoki yuqori daromad olishi mumkinligini ifodalaydi. Ana shu tavakkalchilik darajasi va u bilan bog'liq yo'qotishlar ehtimolini aniqlashning bir necha usullari mavjud:

- ekspert (subyektiv) baholash usuli;
- statistik usul;
- tahliliy (kompleks) usul.

“Ekspert baholash usuli tavakkalchilikni tahlil qiluvchi iqtisodchi (ekspert)ning malaka darajasiga asoslanadi. Bunda bankning faoliyatida o‘tkazilgan barcha operatsiyalar bo‘yicha mavjud ma’lumotlar tahlil qilinib, imkoni boricha ko‘proq yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan operatsiyalar tahlilga jalb qilinadi. Shu jarayonda bankning o‘zidagi, shuningdek, bo‘lish ehtimoli bo‘lgan yo‘qotishlar va ularning davr oralig‘i aniqlanadi:

$$Y = \frac{YH}{N}$$

Bu yerda:

Y – yo‘qotishlar darajasi (koeffitsiyentda);

YH – yo‘qotishlarga olib keluvchi holatlar soni;

N – tahlilga jalb qilingan holatlarning umumiy soni.

Formuladagi N bankning faqat yo‘qotish, zararlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan operatsiyalarning sonini emas, balki barcha operatsiyalarni, jumladan, foyda keltiruvchi operatsiyalarni ham o‘z ichiga oladi.

Yo‘qotish darajasi $0 < Y < 1$ oralig‘ida bo‘ladi. «Y» qancha «0» ga yaqin bo‘lsa, tavakkalchilik darajasi shuncha kichik bo‘ladi. Agar «Y» qanchalik «1» soniga yaqin bo‘lsa, tavakkalchilik darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi.

0,10 gacha – kam (sezilarli bo‘lmagan farqlanish);

0,10-0,25 – me’yorida yoki sezilarli farqlanish;

0,25 va undan yuqori – katta farqlanish.”⁸

Variatsiya koeffitsiyentining darajasi bank tomonidan amalga oshiradigan operatsiyalar bo‘yicha tavakkalchilik darajasining past yoki yuqori bo‘lishiga bog‘liq. Ya’ni bankning operatsiyalari bo‘yicha tavakkalchilik darajasi variatsiya koeffitsiyentiga to‘g‘ri proporsionaldir. Shu sababli bank o‘z faoliyatida tavakkalchilikni kamaytirish va bank likvidligini oshirish uchun o‘z mablag‘larini farqlanishi eng kam bo‘lgan operatsiyalar (variant)ga qo‘yishga harakat qilishi kerak.

Tahliliy-kompleks usuli o‘yinlar nazariyasini qo‘llashga asoslanadi. U

⁸ Abdullayeva Sh. Bank risklari va kreditlash.– T.: Moliya, 2002, 117-bet.

bankning nafaqat o'z harakatlarini, shuningdek, atrofidagi kontragentlarning ham amalga oshirishi mumkin bo'lgan barcha muqobil harakatlarini ko'rib chiqishni taqozo etadi. O'yinlar nazariyasi unsurlaridan foydalangan holda vazifalarni hal qilish jarayoni juda ulkan va murakkab bo'lib, juda ko'p vaqt sarflashni talab etadi.

Bank bo'yicha yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan tavakkalchilik darajasi yoki ko'rsatkichi (K_r) quyidagicha hisoblanadi:

$$K_r = \frac{\text{Ko'rilgan maksimal zararlar}}{\text{o'z mablag'lar}}$$

Xalqaro amaliyotda bank faoliyatida kredit tavakkalchiliklarini baholash uchun bir qancha me'yorlar qo'yilgan. Bular quyidagilardan iborat:

1. Bitta qarzdor uchun tavakkalchilik darajasining maksimal qiymati:

$$K = (\text{Bitta qarzdorning kreditlar bo'yicha majburiyatlarining yig'indisi}) / (\text{Bank kapitali}) * 100\%$$

Bu ko'rsatkichning qiymati 25 % dan oshmasligi kerak.

2. Yirik kreditlar me'yori:

$$K = (\text{Yirik kreditlar yig'indisining miqdori}) / (\text{Bank kapitali}) * 100\%$$

Bu ko'rsatkiyaning qiymati o'z kapitalining 8 barobaridan katta bo'lmasligi kerak.

2. Xalqaro kreditlarning maksimal miqdori:

$$K = (\text{bank tomonidan berilgan xalqaro kreditlarning umumiy summasi}) / (\text{Bank kapitali}) * 100 \%$$

Bu ko'rsatkichning maksimal qiymati 200 % ga teng.

Foiz tavakkalchilikini baholashda foiz marjasidan foydalaniladi.

Foiz marjasi daromad keltiruvchi aktivlar bo'yicha foiz daromadlar bilan bankning majburiyatlari bo'yicha foizli xarajatlari o'rtasidagi farq tushuniladi. Foizmarjasi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Mhaq = \frac{Da - Xf}{Ad} * 100\%$$

Bu yerda:

Mhaq - foiz marjasining haqiqiy hajmi;

Df - foizli daromad;

Xf - foiz to'lovlari bo'yicha xarajatlar; keltiruvchi aktivlar;

Ad - foizli daromad keltiruvchi aktivlar;

Valyuta tavakkalchiliklari banklarda turli usullarda boshqariladi. Bank ichki tizimida valyuta tavakkalchiliklarini boshqarishning birinchi qadami bo'lib, valyuta operatsiyalariga limitlar o'rnatilishi hisoblanadi. Xususan quyidagi bir qator limitlar keng tarqalgan:

1. Xorijiy davlatlarda limitlar (mijozlar va kontrhamkorlar bilan bir kun mabaynida operatsiyalar o'tkazish uchun har bir alohida mamlakat summasida maksimal darajadagi qiymat o'rnatiladi).

2. Hamkorlar va mijozlar bilan operatsiyalarga limitlar (har bir hamkor, mijoz yoki mijozlar turiga operatsiyalar o'tkazish uchun maksimal darajadagi qiymat o'rnatiladi).

3. Dastak limitlari (savdo uchun valyutalar va savdo dastaklari uchun lozim bo'lgan ro'yxatni belgilangan holda foydalanilgan dastaklar va valyutalar bo'yicha cheklovlarni o'rnatish).

4. Har bir kun va dilerga limit o'rnatiladi (savdo qilinayotgan xorijiy valyuta, har bir alohida diler va har bir alohida dastak uchun keyingi kunga o'tkazishning ehtimoliy ulushi bo'yicha, odatda, ehtimoliy ochiq pozitsiyaning maksimal hajmi o'rnatiladi).

5. Zarar limiti (maksimal darajadagi zaralar hajmi o'rnatiladi, bundan so'ng esa, barcha ochiq pozitsiyalar zarar bilan qoplanishi mumkin). Ba'zi banklarda bunday limit har ish kuniga yoki alohida davrga belgilanadi, ba'zi banklarda alohida dastaklarga taqsimlanadi, ba'zilarida esa, alohida dilerlarga o'rnatilishi mumkin. Hozirgi kunda O'zbekistonda valyuta bozorini erkinlashtirish bo'yicha bir qator tadbirlar amalga oshirilyapti. Bu tadbirlar valyuta operatsiyalari ko'lamini kengaytirib ularni jahon amaliyotiga muvofiqlashtirishga yordam beradi. Shu maqsadda manfaatdor organlar xalqaro valyuta bozorining faoliyat mexanizmini chuqur o'rganishlari lozim. Tijorat bankning kredit tavakkalchiliklarini boshqarish jarayonida bir nechta umumiy xarakterlovchi

bosqichlarni ajratish mumkin. Bular:

- bankning kredit siyosatining maqsad va vazifalarini ishlab chiqish;
- ma'muriy yechimlarni qabul qilish tizimini va kredit tavakkalchilikini boshqarish ma'muriy tarkibini tashkil etish;
- qarzdorning moliyaviy holatni tahlil qilish;
- kredit shartnomasini ishlab chiqish va imzolash;
- kreditlarning qaytarilmaslik tavakkalchilikini tahlil qilish;
- barcha ssudalar portfeli bo'yicha qarzdorning kredit monitoringini yo'lga qo'yish va uzluklashtirish;
- muddati o'tgan va shubhali kreditlarni qaytarish va garovni sotish bilan bog'liq tadbirlarni amalga oshirish va boshqalar.

Kredit tavakkalchilikini boshqarish uchun bank xodimi ssudalar portfelining sifatli tarkibi va tuzilishi ustidan doimo nazorat olib borishi kerak. «Foydalilik-tavakkalchilik» munozarasi doirasida bank xodimi o'zini ortiqcha tavakkalchiliklardan saqlagan holda foyda normasini cheklashga majbur. Operatsion tavakkalchilikni to'g'ri boshqarish uchun tijorat bankida tegishli kunlik nazorat va ma'lumotlarni jamlash jarayoni tashkil etilgan bo'lishi darkor. Markaziy bank tijorat banklaridan ular darajasiga, tavakkalchiliklar miqdori va turiga, banklar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarning murakkabligiga mos operatsion tavakkalchiliklarni baholash va boshqarish mexanizmini yaratilishini talab qilishga haqlidir. Bundan tashqari, Markaziy bank tijorat banklari tomonidan operatsion tavakkalchiliklar bo'yicha qoida va talablarga rioya etilishi yuzasidan doimiy va alohida nazoratni olib borishi lozim.

II BOB. TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA TAVAKKALCHILIKNI BOSHQARISH VA UNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI

(“O’zsanoatqurilishbank” ATB Uchtepa filiali misolida)

2.1 “O’zsanoatqurilishbank” ATB Uchtepa filiali bosqaruvining holati tahlili

O’zsanoatqurilishbank tarixi 1922 yildan boshlab Toshkentda Sanoatbankning O’rta Osiyo idorasi ochilishidan boshlangan bo’lib, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi bilan chambarchas bog’liq.

Kapital qo’yimalari hajmining o’sishi va xizmat ko’rsatish uchun pudratchi tashkilotlar hisobraqamlarining Sanoatbankiga topshirilishi moliyalash tizimida o’zgartirishlarni talab etdi. 1932 yil may oyida Sanoatbank uzoq muddatli qo’yimalarga ixtisoslashtirilgan bankka aylantirilib, uning zimmasiga kapital qurilish, og’ir, yengil, mahalliy sanoat, ta’minot tashkilotlari, tashqi savdoni moliyalash yuklatildi.

1955 yilda kapital qurilishni moliyalashning yangi qoidalari va qurilish bo’yicha pudrat shartnomalari to’g’risidagi qoidalar tasdiqlandi. Bank ishlab chiqarish quvvatlari va asosiy fondlarning ishga tushirilishi bo’yicha davlat rejalarining bajarilishi ustidan nazoratni kuchaytirdi. Tayyor ob’ektlar bo’yicha hisob-kitoblar kengaytirildi, pudratchi tashkilotlarni qisqa muddatli kreditlash tizimi o’zgartirildi.

Davlat tomonidan kapital qo’yimalarga yo’naltirilayotgan mablag’larning to’g’ri sarflanayotgani ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida 1959 yilsa Sanoatbank kapital qo’yimalarni moliyalash banki - Qurilishbank deb o’zgartirildi. 1966 yildagi yer qimirlashidan so’ng Toshkent shahrini qayta tiklashda bankning roli beqiyos bo’ldi.

1987 yilda Qurilishbank Sanoat-qurilish bankiga aylantirildi. Shu yilning o’zida bank tizimini isloh qilish boshlanib, mustaqil O’zbekiston davlati e’lon qilingach o’zining sifat jihatdan yangi xususiyatini kasb etdi.

Mustaqillik e’lon qilingach, mamlakatda sifat jihatdan yangi, ikki tabaqali bank tizimi shakilana boshladi. Ta’sis konferentsiyasida O’zsanoatqurilishbank

aksiyadorlik-tijorat bankiga aylantirildi. O'zbekiston Respublikasining yetakchi sanoat korxonalari va pudratchi tashkilotlari uning ta'sischilari bo'ldilar.


1998 yilda O'zsanoatqurilishbank faoliyati Respublika Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish dasturi va oila manfaatlarini amalga oshirishni ta'minlash davlat dasturi, makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishga yo'naltirildi. Bankning butun faoliyati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000 yil 21 martidagi "Bank tizimini kelgusida erkinlashtirish va isloh etish chora tadbirlari to'g'risida"gi farmonida belgilangan bozor islohotlari jarayonini chuqurlashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirishga qaratildi.

O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risiga"gi qonuni va "O'zsanoatqurilishbank" Kengashi qaroriga binoan 2003 yilda tasdiqlanib, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ro'yxatga olingan. Bank filiali to'g'risidagi nizomda qayd etilganidek, bank filialining huquqiy maqomi quyidagilardan iborat.

Filial yuridik shaxs maqomiga ega emas. Uning majburiyatlari bo'yicha bosh bank javobgardir. Filial o'z faoliyatida bosh bank nomidan ish ko'radi va o'z ma'muriy hududiy bo'linish birligi doirasidagi va tasarrufidagi filiallarga nisbatan nazorat va boshqarish vazifasini bajaradi. Filial to'la xo'jalik hisob-kitob tamoyillari asosida ish olib boradi. Filial Bankning umumiy jamlanma balansiga kiruvchi alohida o'z balansiga, bank nomi yozilgan yumaloq muhr, shtamp hamda banklarga ega.

Filialning asosiy vazifalri:

Filial bank nomidan bank operatsiyalrining hammasini, yohud bir qismini, jumladan, vakolatxona vazifalarini amalga oshiruvchi bankning alohida bo'linmasidir. Filial bank tomonidan mol-mulk bilan ta'minlanadi va bank faoliyati bilan bog'liq vazifalarni bajarish maqsadida o'z hududida faoliyat yuritadi.



1-rasm. “O’zsanoatqurilishbank” Uchtepa filialining boshqaruv tashkiliy sturukturasi.⁹

⁹ “O’zsanoatqurilishbank” Uchtepa filiali ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

Bank boshqaruvchisi — bank filialining rahbari hisoblanib, Markaziy bank roziligi bilan bank boshqaruvi tomonidan tasdiqlanadi. Bank boshqaruvchisi bosh bankning ishonchnomasiga asosan bank nomidan ish yuritib, mijozlar, boshqa banklar va partnyorlar bilan shartnomalar tuzadi.

Boshqaruvchi o'rinbosari — bankning mansabdor shaxsi hisoblanib, bank operatsiyalarini amalga oshirishga ruxsat beradi va filial ishini tashkil qiladi; o'ziga birlashtirilgan bo'lim va ob'ektorlar bo'yicha axborot, ma'lumotlar va ish rejalarini, barcha oylik, choraklik, yillik hisobotlarni tayyorlash bo'yicha nazoratni olib boradi, bo'lim va sektorlarga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida va to'liq bajarilishini ta'minlaydi;

-o'ziga birlashtirilgan bo'lim va sektorlarda faoliyat yuritayotgan xodimlarning iqtisodiy va ma'naviy bilimlarini oshirish, iqtisodiy va texnik o'quv mashg'ulotlarini muntazam ravishda olib borilishini nazorat qilish, o'quv mashg'ulotlari rejalarini tasdiqlaydi;

-bo'lim va sektorlarda faoliyat yuritilayotgan xodimlarning kasbiy malakasini aniqlash va o'z lavozimiga muvofiqligini tekshirish yuzasidan kasbiy sinovlar o'tkazadi.

Bosh buxgalter — bankning hisob-operatsion ishlariga rahbarlik qiladi. Bank moliyaviy-xo'jalik operatsiyalari hisobini yuritishni ta'minlaydi. Bundan tashqari quyidagi ishlarining bajarilishini nazorat qiladi:

buxgalteriya hisobi qonunchiligini;

fuqarolik huquqi, bank, moliya, soliq va xo'jalik qonunchiligining buxgalteriya hisobini yuritishga tegishli qismini;

bank tuzilishi, strategiyasi va uning rivojlani istiqbollarini;

soliq, statistika, boshqaruv va moliyaviy hisobotlarni;

operatsiyalarni rasmiylashtirish va hisob uchastkalari hujjatlar aylanishini tashkillashtirish tartibi, pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari, shuningdek boshqa tovar-moddiy zahiralarini qabul qilish, kirim qilish, saqlash va sarflash tartibini;

asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va boshqa tovar-moddiy zahiralarini

qarzdorlikni hisobdan chiqarish tartibini, shuningdek, debitor va kreditor qarzdorlikni hisobdan chiqarish, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlarga eskirish hisoblash;

Kredit bo'limi boshlig'i — bankning kreditlash jarayonini tashkil etadi. Qarz oluvchi yuridik va jismoniy shaxslarning moliyaviy ahvolini tahlil qiladi, qarz oluvchi shaxs moliyaviy xo'jalik faoliyati yuzasidan bank kredit qo'mitasiga xulosalar beradi, berilgan kreditlar hisobi va monitoringini yuritadi. Bo'lim boshligi qonun hujjatlariga va Bankning ichki-me'yoriy hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga xam ega bo'lishi mumkin. Qonunchilikka zid bo'lgan hujjatlar loyixalarini puxta ishlash uchun ijrochilariga qaytarish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish to'grisida, o'z e'tirozlarini asoslagan holda xulosalar berish, rahbariyat topshirig'iga ko'ra yoki o'z tashabbusi bilan boshqa bo'linmalar bilan birgalikda loyixalarni puxta ishlashda qatnashishi mumkin.

Pul muomalasi bo'limi — bankdagi naqd pul kirimi va chiqimini nazorat qiluvchi filialning tarkibiy bo'linmasidir.

Valuta operatsiyalari bo'limi — chet el valyutalari bilan bank operatsiyalarini amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Xodimlar bo'limi — Xodimlar bilan ish olib borish xizmati bosh mutaxassisi yillik ish rejani belgilaydi, xodimlar bilan ish olib borish xizmati bosh mutaxassisi har yili mehnat ta'tili jadvalini tayyorlaydi va tasdiqdan o'tkazadi hamda ushbu jadvalga muvofiq mehnat ta'tillaridan foydalanish bo'yicha nazorat ishlarini olib boradi.

Markaziy bank va Bosh bank nomenklaturasiga kiritilgan lavozimlarga xodimlarni tayinlash to'g'risida filial rahbariga o'z taklifini beradi.

Rahbariyat bilan birgalikda xodimlarni yuqori lavozimlarga ko'tarish bo'yicha zahirani shakllantiradi va ushbu zahira tarkibiga kiritilgan xodimlar bilan muayyan ishlarni amalga oshiradi;

Xodimlarni tanlash, ularni joy-joyiga qo'yishda filial boshqaruvchisiga o'z takliflarini berish, xodimlarga ularning qobiliyatiga qarab xolis baho beradi.

Xodimlarga nisbatan mehnat qonunchiligida ko'zda tutilgan jazo choralarini qo'llash bo'yicha taklif beradi.

Yuridik bo'lim — bank mijozlar bilan shartnomalar tuzish, bank operatsiyalarini amalga oshirishda ishtirok elib, bank filialining huquqiy maslahatchisi hisoblanadi va quyidagi funksional vazifalarni bajaradi. Filialning huquqiy xarakterdagi hujjatlarini ishlab chiqish yoki ularni ishlab chiqishda ishtirok etish;

Filialda tayyorlanadigan buyruqlar, farmoyishlar, kelishuvlar va huquqiy xarakterga ega bo'lgan boshqa hujjatlarning amaldagi qonunchilikka mos kelishini dastlabki tekshiruvdan o'tkazish;

Filial faoliyatida vujudga keladigan boshqa huquqiy masalalar boshqa huquqiy masalalar bo'yicha xulosa tayyorlash;

Filial xodimlariga bankning kredit va boshqa xo'jalik shartnomalarini tuzish bo'yicha huquqiy va amaliy yordam ko'rsatish, shuningdek ularga boshqa yuridik masalalar bo'yicha maslahatlar berish.;

Kassa operatsiyalari bo'limi — pul mablag'lari va boshqa boyliklarni saqlash, kirim va chiqim qilish hisobini yuritish vazifalarini bajaradi.

Xavfsizlik bo'limi — bankning xavfsizligi va axborot xavfsizligini ta'minlash maqsadida tashkil qilinadi.

Axborotlashtirish bo'limi — axborotlashtirilgan bank tizimini uzluksiz ishlash jarayonini va bank axborot texnologiyalarini me'yoriy talablarga javob berishini ta'minlaydi.

1-jadval

“O'zsanoatqurilishbank” Uchtepa filiali xodimlar soni (kishi)¹⁰

№	Xodimlar	2012		2013		2014	
		kishi	%	kishi	%	kishi	%
1.	Ma'muriyat boshqaruvi	2	3.92	3	5.17	3	4.91
2.	Ishchi-xodimlar	40	78.43	43	74.13	45	73.77
3.	Bosh mutaxassislar	7	13.72	10	17.24	13	21.31
	Jami	51	100	58	100	61	100

¹⁰ “O'zsanoatqurilishbank” Uchtepa filiali ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki filial ma'muriyat boshqaruvi 2012 yilda 2 kishidan ya'ni boshqaruvchi va boshqaruvchi o'rinbosaridan iborat bo'lgan bo'lsa, 2013 yilda esa 3 kishidan ya'ni boshqaruvchi va 2 kishi boshqaruvchi o'rinbosaridan iborat bo'lgan. Bosh mutaxassislar soni 2012 yilda 7 kishi tashkil etgan bo'lsa, 2013 yilda 10 kishini, 2014 yilda 13 kishini tashkil etdi. Bankning jami ishchi xodimlari 2012 yilda 51 kishidan iborat bo'lgan bo'lsa, 2014 yilga kelib 61 kishini ya'ni 10 kishiga ko'paydi.

2-jadval

“Uchtepa filialining moliyaviy holati bo'yicha ko'rsatkichlar 2015 yil 01.04 holatiga”(mln.so'mda)¹¹

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yilning mos davridagi hajmi	Hisobot sanasining hajmi	farqi	%
1	Filialning jami aktivlari	31200	39800	8600	128
2	Daromad keltiruvchi aktivlar	20315	30725	10410	151
	Daromad keltiruvchi aktivlar ulushi - %da	65,1	77,2		
3	Aktivlarni daromadlilik darajasi (5/1)-%da	4,7	4,9	0,194885	104
4	Daromadlar	1750	2280	530	30
5	Xarajatlar	1460	1940	480	33
6	Foyda	290	340	50	117
7	Rentabellik darajasi	16,6	14,9	-1,66	90
8	Kredit qo'yilmalari	21450	30650	9200	143
9	Daromad keltirmaydigan aktivlar	9350	6555	-2795	70
	Daromad keltirmaydigan aktivlar ulushi	30,0	16,5		
10	Korxonalar ustav kapitaliga qilingan investitsiyalar	0	0	0	0
11	16700 hisob raqamdagi mol-mulklar	0	0	0	0

¹¹ “O'zsanoatqurilishbank” Uchtepa filiali ma'lumotlari asosida tayyorlandi.


12	16300 h/rdagi hisoblangan lekin undirilmagan daromadlar	0	0	0	0
13	16400 h/rdagi undirilmagan daromadlar	0	0	0	0
14	Filial resurs bazasi, jami Shundan	27637,5	34977,0	7339,5	127
14.1	-talab qilib olinguncha depozitlar (20200)	13100	16300	3200	124
14.2	-jamg`arma depozitlar (20400)	1200	3600	2400	300
14.3	-muddatli depozitlar (20600)	2400	1008	-1392	42
14.4	-boshqa banklar hisobvaraqlari (2100)	0	0	0	0
14.5	-olingan qisqa muddatli kreditlar (21600)	0	0	0	0
14.6	-olingan uzoq muddatli kreditlar (22000)	0	0	0	0
14.7	-bosh bankdan/ boshqa filialdan olingan moliyaviy yordamlar (22203)	7100	13900	6800	196
	Moliyaviy yordamlarning kredit qo`yilmalaridagi ulushi %	68,75	77,01		
14.8	-vakillik hisobvarag`idagi mablag`lar (22204)	3700	15	-3685	0
14.9	Mizojlarning boshqa depozitlari (22600)	2460	2750	290	12
14.10	-muomlaga chiqarilgan qimmatli qog`ozlar (23600)	32	0	-32	0

Keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki 1 yil ichida filialning jami aktivlari 8 mlrd 600 mln so'mga, ya'ni 128 foizga, Shu jumladan daromad keltirivchi aktivlar 10410 mlrd so'm ya'ni 151 foizga, daromadlar 5mlrd 30mln so'mga, filialning resurs bazasi esa 7339,5 mlrd so'mga, shundan talab qilib olivchi depozitlar 3mlrd 200 mln so'm, jamg`arma depozitlar 2 mlrd 400mln so'mga oshganini ko'rishimiz mumkin. Bu esa filial faoliyatining samarali olib borilayotganligi va mijozlarga bo'lgan xizmat yaxshiligidan dalolat beradi.

2.2 "O'zsanoatqurilishbank" ATB Uchtepa filiali aktivlari va ular bilan bog`liq tavakkalchiliklarni boshqarish tahlili

Bank aktivlari bankning harakatdagi mablag`lari bo`lib, bank o`zining asosiy daromadini shu mablag`larni joylashtirishdan oladi. Bank aktivlari bank sarmoyasi va majburiyatlaridan shakillanadi, ya'ni bank o`z mablag`lari hamda jalb qilingan mablag`larni aktivlash natijasida yaratadi.

Bank aktivlarni boshqarish deganda o'z va jalb qilingan mablag'larni joylashtirish tartibi va yo'llari tushuniladi. Tijorat banklariga qo'llanilsa - bu naqd pullar, investitsiyalar, ssudalar va boshqa aktivlarga taqsimlashdir. Mablag'larni joylashtirishda asosiy diqqat qimmatli qog'ozlarga, investitsiyalar va ssuda operatsiyalariga qaratiladi. Bank o'z mablag'larini joylashtirayotganida hal etadigan asosiy masalalardan biri bu likvidlilik va foydalilik o'rtasidagi munosabatdir. O'zbekiston tijorat banklarining aktivlari o'ziga xos belgilari: likvidlik darajasiga qarab, tavakkalchilik darajasiga va daromad keltirish darajasiga qarab bir necha guruhlariga bo'linadi.



2-rasm. Bank aktivlarini xususiyatlariga ko'ra turlari.¹²

Bank balansida aktivlar likvidlik darajasiga qarab aks ettiriladi va likvidlik darajasiga qarab ular quyidagi 3 guruhga bo'linadi.

1 guruh - yuqori likvidli aktivlar. Bularga:

a) kassadagi va yo'ldagi naqd pullar, qimmatbaho toshlar, moneta, cheklar va boshqa pul hujjatlari;

b) ko'rschetdagi mablag' qoldiqlari;

¹² Ortiqov O.A., Tillayev X.S. Bank menejmenti. T.: TDIU, 2013y. 17b.

- v) «Nostro» va «Vostro» schetlardagi qoldiqlar;
- g) majburiy rezervlar scheti bo'yicha mablag'lar qoldi;
- d) qimmatli qog'ozlar, schetdagi mablag'lar qoldig'iyoki, xazina veksellari, davlat obligatsiyalari, URMB ning qimmatli qogo'zlari va obligatsiyalari.

2 guruh - likvid aktivlar. Bularga:

- a) berilgan kreditlar (jumladan banklararo ham);
- b) o'z investitsiyalari;
- v) boshqa qimmatli qogo'zlar;

3. guruh - nolikvid aktivlar. Bularga:

- a) muddati o'tgan ssudalar;
- b) muddati o'tgan foizlar;
- v) sud aralashuvi bilan o'zlashtirilishi ko'zda tutilgan ssudalar;
- g) tugallanmagan ishlab chiqarish;
- d) asosiy vositalar.

Tavakkalchilik darajasiga qarab aktivlar to'rt guruhga bo'linadi.

1 guruh - tavakkalchilikdan holi bo'lgan aktivlar.

Bularga: naqd pullar va boshqa kassa hujjatlari, MB dagi «Nostro», «Vostro» schetidagi mablag'lar, majburiy rezerv schetidagi mablag'lar, xazina veksellari, davlat obligatsiyalari, MBning qimmatli qogo'zlari va obligatsiyalari.

2 guruh - kichik (minimal) tavakkalchilikli aktivlar. Bularga boshqa banklarning «Nostro», «Vostro ko'rschetlaridagi olinishi lozim bo'lgan mablag'lar, evroobligatsiyalar, qisqa muddatli birinchi sinf ta'minlanganlikga ega bo'lgan kreditlar va boshqa hujjatlar. Bu aktivlar bo'yicha tavakkalchilik darajasi 20 %ga teng.

3-guruh - yuqori tavakkalchilikli aktivlar: boshqa banklarga berilgan kreditlar, boshqalar uchun bank bergan garov va kafolatlar. Bu aktivlar bo'yicha tavakkalchilik 50 % ga teng.

4-guruh - eng yuqori darajadagi (maksimal) tavakkalchilikli aktivlar: qimmatli qogo'zlar sotish va sotib olish scheti, sotib olingan veksellar, trast hujjatlar va akkreditivlar trattalari bo'yicha mijozlarning majburiyatlari,

bankning to'lanmagan aksiyalari bo'yicha mijozlarning majburiyatlari, sud jarayonida bo'lgan kreditlar, akkreditivlar, forvard, bank va banklararo sotish va sotib olish.

Bular bo'yicha tavakkalchilik darajasi maksimal bo'lib, u 100% ga teng bo'ladi.

Daromad keltirishga qarab bank aktivlari: daromad keltiruvchi va daromad keltirmaydigan aktivlarga bo'linadi.

Daromad keltiruvchi aktivlarga :

- a) Barcha berilgan kreditlar (jumladan banklararo kreditlar)
- b) investitsiyalar (o'ziniki)
- v) xazina veksellari
- g) davlat obligatsiyalari
- d) qimmatli qog'ozlar.

Daromad keltirmaydigan aktivlar.

- a) pul aktivlari guruhi,
- b) asosiy vositalar
- v) kapital xarajatlar
- g) barcha moddiy aktivlar va boshqa aktivlar
- d) nomoddiy aktivlar.

3-jadval

Daromad keltirish darajasiga qarab "O'zsanoatqurilishbank" (ATB)

Uchtepa filiali aktivlarini guruhlash (mln.so'mda)¹³

Aktivlar	01.01.2014	01.04.2015	Farq + -	%
Filialning jami aktivlari	31200	39800	8600	128
Daromad keltirmaydigan aktivlar	9350	6555	-2795	70
Daromad keltiruvchi aktivlar	20315	30725	10410	151
Jami	60 865	77 080	16215	

¹³ "O'zsanoatqurilishbank" Uchtepa filiali ma'lumotlari asosida tayyorlandi.


Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki 2015 yil 01.04da 2014 yilga nisbatan bankning daromad keltiruvchi aktivlari 10410 punktga oshgan, shunga muvofiq ravishda daromad keltirmaydigan aktivlar miqdori esa 2795 mln. so'mga kamaygan. Bu bankning moliyaviy ahvolidan yaxshilanganligidan dalolat beradi.

Tijorat banklari aktivlari bilan bog'liq bo'lgan tavakkalchiliklar ichida kredit operatsiyalar bo'yicha tavakkalchiliklar asosiy o'rinni egallaydi. Bu aktiv operatsiyalar bilan bog'liq bo'lib, bu tavakkalchilikarga berilgan kreditlar, hamda to'lov muddati kechiktirilgan ssudalar bo'yicha tavakkalchiliklar kiradi. Kredit tavakkalchiligi nafaqat kredit obyektiga, balki kredit subyektiga yangicha yondashishi orqali ham o'sib boradi. Bu tavakkalchilik turi mijozning moliyaviy ahvoli ogirlashganda, ularning faoliyatida ko'zda tutilmagan kiynchilik va muammolar yuzaga kelganda, bozorda noqulay sharoit yuzaga kelgani sababli paydo bo'lishi mumkin. Xuddi shuning uchun ham har bir tijorat banki o'z aktivlarini joylashtirishni va uni boshqarish usullarini o'zi ishlab chiqmogi zarur. Ma'lumki, tijorat banklari aktivlarining qiymati va ulardan olinadigan foyda o'zgarib turishi mumkin. Aktivlar bilan bog'liq tavakkalchiliklar aktivlar bahosining va ular bo'yicha olinadigan foyda miqdorining kamayishi aktivlar bo'yicha tavakkalchiliklar salmog'ining oshishiga olib keladi.

Tijorat banklarining asosiy daromad keltiruvchi operatsiyalari bu - kredit operatsiyalaridir. Shu sababli bank kredit operatsiyalari bo'yicha oladigan daromadi va u bo'yicha tavakkalchilik darajasini aniqlashi lozim. Bank kreditlari bo'yicha o'rtacha tavakkalchilikni aniqlab bu tavakkalchilik bo'yicha rezerv tashkil qilish to'g'risida o'ylash kerak bo'ladi. Agar bankning foydasi yuqori bo'lsa, rezervni ham ko'proq tashkil qilish imkoniyati bo'ladi. Shuning uchun ham tavakkalchilik bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich olinib, shu ko'rsatkichga qarab rezerv tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Kreditlarni boshqarishning umumiy jarayoni asosini kredit siyosati tashkil etadi. Ishlab chiqilgan va yozma ravishda qayd qilingan kredit siyosati kreditni boshqarishning tamal toshi hisoblanadi. Siyosat qarzlarni berish, ularni

rasmiylashtirish boshqarish uchun javobgar hisoblangan bank xodimlari amal qilishi lozim bo'lgan ob'ektiv standartlarni aniqlaydi. Kredit siyosati kredit berish jarayoniga jalb etilgan kredit xodimining lavozimi va vakolatlariga qarab ularning har biri uchun kreditlash to'g'risida qaror qabul qilish va kredit miqdorini cheklash tartibini belgilab beradi. Kreditlash uchun mas'ul bo'lgan barcha shaxslar vakolatlari kredit siyosatida qayd etiladi. Kredit qo'mitasi majlislari va uning bank boshqaruvi organlari oldida hisobot berishi davriyligi ham kredit siyosatida belgilab qo'yilishi kerak.

Bankning kredit siyosati — kreditlash jarayonida yuzaga keluvchi tavakkalchilikni boshqarishda bank rahbariyati tomonidan qabul qilinadigan choralar va uslublarni belgilovchi hamda bank rahbariyati va xodimlar tomonidan kredit portfelini samarali boshqarishga doir ko'rsatmalar bilan ta'minlovchi hujjatdir. Kredit siyosati bankning kredit faoliyati maqsadlarini aniq ko'rsatishi va aniqlab berishi shart. Tijorat banklari kredit siyosati alohida hujjat sifatida ishlab chiqiladi va bank Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.



1-diagramma. "O'zsanoatqurilishbank"(ATB) Uchtepa filiali kredit qo'yimalari.¹⁴

"O'zsanoatqurilishbank"ning Uchtepa filialida shuningdek, kredit qo'yimalari 2014-yil 1-yarim yillikda 24,6 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lib, ulardan «Yosh oila»ga 132,7 mln. so'm, «Kichik biznesga qaratilgan kreditlar»ga - 1765,5 mln. so'm, «Tadbirkor ayollar»ga - 257,7 mln. so'm,

¹⁴ "O'zsanoatqurilishbank" Uchtepa filiali ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

«Mikrokredit»ga - 811,5 mln. so'm, «Kasb-hunar kolleji bitiruvchilari»ga - 350,6 mln. so'm, maishiy va oshxona elektr jihozlarini xarid qilish uchun «Iste'mol kreditlari»ga - 57,1 mln. so'm miqdorida kreditlar ajratilgan.

4-jadval

“O`zsanoatqurilishbank” ATB tizimida kreditlar, faktoring va lizing operatsiyalari bo`yicha foiz stavkalari¹⁵

№	Kreditlar va boshqa aktiv amaliyotlar turlari	Foiz stavkalari (yillik foiz miqdori)	Izoh
1	Ulgurji, ulgurji-jakana va chakana savdo faoliyati uchun kreditlar	16%gacha	
2	Birinchi ehtiyoj tovarlarini sotib olish uchun kreditlar	14%gacha	
3	Aylanma mablag`larni to`ldirish uchun kreditlar	12%gacha	
4	Xizmat ko`rsatish sohasiga ajratiladigan kreditlar	12%gacha	
5	Investitsion xarakterga ega bo`lgan ishlab chiqarish bilan bog`liq kreditlar	12%gacha	
6	Kapital qurilishini moliyalash uchun kreditlar	12%gacha	
7	Mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarga oziq-ovqat mahsulotlarinin ishlab chiqrishda zarur bo`lgan texnologiya uskunalari, xom-ashyo va materilallar sotib oilsh xamda tomchilatib sug`orish tizimlarini xarid qilish uchun, fermer xo`jaliklari, agrofimalar va boshqa tadbirkorlik sub`ektkariga issiqxonalar barpo qilish uchun kreditlar.	O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki qayta moliyalash stavkasidan yuqori bo`lmagan miqdorida	(O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009yil 26 yanvardagi 1047-sonli qaroriga asosan)
8	Ishlab chiqaruvchi korxonalarga texnolok uskunalar xarid qilish, nooziq-ovqat iste`mol tovarlari ishlab chiqarish uchun zarur bo`lgan xom-ashyo va materiallar sotib olish uchun kreditlar.	O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki qayta moliyalash stavkasidan yuqori bo`lmagan miqdorida	(O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009yil 28 yanvardagi 1050-sonli qaroriga asosan)
9	Savdo va xizmat ko`rsatuvchi korxonalarga kredit mablag`larine	O`zbekiston Respublikasi Markaziy	(O`zbekiston Respublikasi

¹⁵ “O`zsanoatqurilishbank” Uchtepa filiali ma`lumotlari asosida tayyorlandi.

	naqd pul tushumi bilan qaytarish sharti asosida aylanma mablag`larni to`ldirish uchun kreditlar	banki qayta moliyalash stavkasining 80% miqdorida	Prezidentining 2009yil 6 apreldagi 1090-sonli qaroriga asosan
10	Bankning o`z mablag`lari hisobidan ajratiladigan mikrokreditlar va mikrolizinglar	O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki qayta moliyalash stavkasi miqdorida	
11	Imtiyozli kreditlash maxsus jamg`armasi hisobidan ajratiladigan kreditlar	O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki qayta moliyalash stavkasining 50% miqdorida	
12	Investitsion loyihalarni moliyalshtirish uchun kreditlar (xorijiy valyutada)	Investitsion loyiha bo`yicha TIAning qoplash ko`rsatkichlari resurslar qiymati va bank marjasining maqbul miqdoridan kelib chiqqan holda, foiz stavkasi Bosh Bank Kredit qo`mitasi tomonidan o`rnatiladi	
13	Lizing amaliyotlari	12%gacha	
14	Faktoring amaliyotlari	Faktoring 90 kunga rasmiylashtirilganda diskont summasi umumiy factoring summasidan 4,5%dan kam bo`lmagan miqdorda	
15	Ta`lim krediti	O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki qayta moliyalash stavkasi miqdorida	
16	Ipoteka kreditlari	Bank boshqaruvining alohida tartibi bo`yicha belgilanadi	
17	Iste`mol kreditlari	Bank boshqaruvining alohida tartibi bo`yicha belgilanadi	
18	Ish haqi to`lovlari uchun kreditlar	12%gacha	
19	Boshqa maqsadlar uchun kreditlar	16%gacha	

Filial tomonidan ulgurji, ulgurji-chakana va chakana savdo faoliyati uchun kreditlar yillik foiz miqdori 16% gacha, Birinchi ehtiyoj tovarlarini sotib olish uchun kreditlar 14 % gacha, Aylanma mablag`larni to`ldirish uchun , Xizmat ko`rsatish sohasiga ajratiladigan kreditlar, Investitsion xarakterga ega bo`lgan ishlab chiqarish bilan bog`liq kreditlar, Kapital qurilishini moliyalash uchun va Lizing amaliyotlari uchun esa yillik 12% gacha kreditlar ajratiladi.

Tijorat banklari faoliyatining barqarorligi va raqobatbardoshligi ularning resurslarini to`g`ri tashkil qilish va ulardan oqilona foydalanishga bog`liq. Shuni ta`kidlash lozimki, tijorat banklarining depozit va kredit portfelini tashkil qilish, boshqarish, uni diversifikatsiya qilish sohasida qator yechilmagan muammolar mavjud. Bozor iqtisodiyoti keng rivojlangan mamlakatlarda tijorat banklarning kredit siyosatiga, ularning kredit portfeli va uning sifatiga, undan foydalanish darajasiga katta e`tibor beriladi. Banklar faoliyatida kredit operatsiyalari asosiy o`rinni egallagani uchun ularning kredit portfelini to`g`ri tashkil qilish banklarning samarali va barqaror faoliyat ko`rsatishi uchun imkoniyat yaratib beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Kredit operatsiyalarini olib borishda yo`l qo`yilgan kamchiliklar banklar daromadining kamayishiga, ba`zi hollarda ularning sinib ketishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli banklarning kredit portfeli va uning sifatini nazorat qilib borish kredit tavakkalchiliklarini kamaytirishning omili va tijorat banklarining samarali faoliyatining garovidir.

III BOB. TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA TAVAKKALCHILIKLARNI BOSHQARISHNING ISTIQBOLLI YO`NALISHLARI

3.1 Tijorat banklari tavakkalchiliklarini boshqarishda yo'l qo'yiladigan kamchiliklar va unlarni bartaraf etish yo'llari

Tijorat banklarida tavakkalchiliklarni boshqarish strategiyasini shakllantirishda unga nisbatan me'yoriy tusdagi talablarning mavjudligi muhim sanaladi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2011 yil 7 maydagi 14/2 – sonli qaroriga asosan tasdiqlangan “Tijorat banklarining bank tavakkalchiliklarini boshqarishga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida”gi nizomga muvofiq, bank faoliyati va uning atrofidagi muhitning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi, aniq ifodalangan va hujjatlashtirilgan tavakkalchiliklarni boshqarish siyosatini ishlab chiqish talabi belgilangan. Biroq, tavakkalchiliklarni boshqarish siyosatining ustuvor yo'nalishlari, tavakkalchiliklarni boshqarish strategiyalari, shuningdek, taktik choralari bo'yicha aniq talab va ko'rsatmalar belgilanmagan. Boshqacha aytganda, yuqoridagi Nizom umumiy tusga ega bo'lib, tavakkalchiliklarning tarkibi va ularni boshqarish strategiyalari bo'yicha Markaziy bank pozitsiyasini o'zida to'liq ifoda etmagan. Banklarda ko'pincha mijoz tanlashda yanglishish natijasida balanslashmagan likvidlik tavakkalchiligi yuzaga keladi. Bunday tavakkalchiliklar odatda iqtisodiy beqaror bo'lgan korxonalarni kreditlashga ustunlik berilgan hollarda yuzaga keladi.

Balanslashmagan likvidlik tavakkalchiligi bank boshqaruvi va xodimlar malakasining sayozligi, bank faoliyati nazoratining sust tashkil qilinishi, tavakkalchiliklarni tartibga solishda qo'llaniladigan usullarning takomillashmaganligi, ayrim olingan bank operatsiyalari yoki ularning guruhlari bo'yicha tavakkalchiliklar koeffitsiyenti shkalalarini o'rnatishda yo'l qo'yilgan kamchiliklar natijasida yuzaga keladi. Banklar mablag'lar yo'qligi tufayli to'lovga qobiliyatsizlik, moliyaviy va xo'jalik faoliyatini davom ettirish imkoniyatiga ega bo'lmaslik tavakkalchilikidan ehtiyot bo'lishlari lozim. Agar

bank berilgan kredit talabnomasini yaxshilab tahlil qilmasdan, juda katta miqdorda kreditlar bergan bo'lsa, ularning qaytmaslik ehtimoli mavjud bo'lsa, bunday «yomon» kreditlar bankka katta zarar keltirishi mumkin. Bank foizli tavakkalchiligi ham kreditor ham qarz oluvchi sifatida xali duchor bo'ladi. Kreditor sifatida bank uchun foizli stavkalarini o'sishi (resurslar) bo'yicha bank amalga oshirgan operatsiyada oladigan foydasini kamayishiga olib keladi. Xuddi shunday o'zgarish, ya'ni jalb qilingan resurslar bo'yicha foiz stavkasini o'sishi bank uchun bu mablag'larning qimmatlashuviga olib keladi va bank zarar ko'radi.

Bank kredit tavakkalchiliklarini boshqarish uchun mustahkam ishlab chiqarish jarayoniga ega emaslar. Ko'p uchraydigan kamchiliklarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- siyosiy izohning hujjat shaklida yozilganligining yo'qligi;
- portfel to'planishiga nisbatan cheklovlar yo'qligi;
- kredit boshqaruvining ortiqcha markazlashuvi yoki markazlashmasligi;
- kreditlanayotgan tarmoqni yaxshi tahlil qilmaslik;
- qarz oluvchilarning yuzaki moliyaviy tahlili;
- mijozlar bilan tez-tez aloqalarning bo'lasligi;
- kreditlash jarayonini yetarlicha tekshirmaslik va muvozanatning yo'qligi;
- qarzlarning ustidan nazoratning yo'qligi;
- kredit sifatining yomonlashuvi oqibatida qarz qiymatini oshirish imkoniyati yo'qligi;
- qarzlarni hujjatlashtirish ustidan nazoratning yaxshi emasligi;
- qarz mablag'laridan ko'p foydalanish;
- kredit hujjatlarining to'liqligisligi;
- kredit bo'yicha zararlarni qoplash uchun rezervlarni shakllantirishda aktivlar va standartlarni guruhlariga ajratishning yo'qligi;
- kredit jarayonini samarali nazorat qilish va audit qilishning yetishmasligi.

Bu kamchiliklar kredit portfelining zaiflashishiga ta'sir etib, o'z ichiga bir tarmoqqa yoki xo'jalik sektoriga yo'naltirilgan kreditlarning to'planib qolishiga

turib qolishiga, katta miqdordagi kredit portfellari, kredit bo'yicha zaralar, to'lovga qobiliyatsizlik va nolikvidlikni oladi. Shubha yo'qki, ko'pgina bozorlarda banklar shunday iqtisodiy sharoitlarda faoliyat ko'rsatishadiki, bunda kreditlarni sifatli boshqarishda ob'yektiv qiyinchiliklarga duch kelishadi, Bu esa kredit boshqaruvini kuchaytirish lozimligini ko'rsatadi. Hozirgi kunda respublikamizning aksariyat tijorat banklari tomonidan kreditlar berishda shu kreditning bahosi qancha ekanligi aksariyat hollarda banklar tomonidan chuqur tahlil qilinmaydi. Valyuta tavakkalchiliklarini boshqarishdagi kamchilikalar valyuta narxini to'g'ri tanlamaslik valyuta pozitsiyalarini shartnomalar bo'yicha muvofiqlashtirmaslik oqibatida kelib chiqadi. Umuman olganda, respublikamiz banklari faoliyatidagi tavakkalchiliklarni boshqarish borasida bir qator muammolar mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish, xalqaro standartlar asosida zamonaviy tavakkalchilik-menejment tizimini tashkil etish mamlakatimiz bank tizimi barqarorligini yanada mustaxkamlashga xizmat qiladi.

Tijorat banklar tavakkalchiliklarini kamaytirish yo'llari.

Kredit tavakkalchiligini kamaytirish usullari¹⁶

1. Mijozning kreditga layoqatliligini baholash . Bu usul mijozning reytingini aniqlashni ko'zda tutadi. Qarzdorni baholash mezonlari har bir bank uchun qattiq individuallashtirilgan bo'lib, uning amaliyotdagi mavqeyidan kelib chiqishi va vaqti-vaqti bilan qayta ko'rib chiqilishi lozim.

2. Bitta qarz oluvchiga beriladigan kreditning summasini kamaytirish. Bu usul mijozning kreditga layoqatliligiga to'liq amin bo'lmagan hollarda qo'llaniladi.

3. Kreditlarni sug'urtalash. Kreditni sug'urtalash uning qaytmaslik tavakkalchilikini to'liq sug'urtalash bilan shug'ullanuvchi tashkilot zimmasiga yuklanishini nazarda tutadi.

4.Yetarli ta'minotni talab qilish. Bu usul bankdan berilgan summaning qaytishini va foiz olinishini kafolatlaydi.

5. Diskontli ssudalar berish. Bu ssudalar unchalik katta bo'lmagan darajada

¹⁶ Y.Abdullayev, T.Qoraliyevavboshqalar. "Bank ishi". O'quv qo'llanma. T: Iqtisod moliya. 2010.

kredit tavakkalchilikini pasaytirishga yordam beradi. Bunday usullarda kredit berish kreditga minimum to'lov olishni ta'minlaydi.

Kredit tavakkalchiliklarini kamaytirishning eng samarali yo'llaridan biri bankning kredit resurslarini yig'ish va ulardan foydalanish bo'yicha diversifikatsiya o'tkazishdir. "Diversifikatsiya" so'zi lotincha so'z bo'lib, "har xil", "turli-tumanlashtirish" degan ma'noni anglatadi.

Foiz tavakkalchiligi esa quyidagi usul yordamida kamaytirilishi mumkin:

1. Foiz tavakkalchiligini quyi bo'g'indagi tegishli sug'urta tashkilotiga o'tkazish yo'li bilan sug'urtalash.

2. Kreditlarni suzuvchi foiz stavkasida berish. Bu narsa bankka berilgan kreditlarining foiz stavkasiga bozordagi foiz stavkalarining tebranishni hisobga olib tegishli o'zgarishlar kiritishga imkoniyat beradi va bank ssuda foizining bozor normasi oshishi natijasida ko'rishi mumkin bo'lgan zararlardan qochish uchun sharoit yaratib beradi.

3. Muddatli kelishuvlar Mijoz va bank o'rtasida belgilangan hajm va o'rnatilgan foizda, ma'lum bir kelishilgan kunda ssuda bilan ta'minlash to'g'risida maxsus forward bitim imzolanadi. Bunday bitimni tuzish bilan bank ssudalarni berish vaqtida bozor foiz stavkalarining tushib ketishi xavfidan o'zini himoyalaydi. Bunda ancha past to'lov evaziga kredit olgan mijoz esa yutadi. Xedjirlashning bu usuli foiz stavkalari tebranishi bilan bog'liq tavakkalchilikni mijoz bilan taqsimlab olishga imkoniyat beradi.

4. Foizli fyuchers kontraktlari. Foiz fyucherslari bozor foiz stavkalarining tebranishidagi spekulyatsiyalar hamda foiz tavakkalchilikini qoplash uchun qo'llaniladi.

5. Foiz opsionlari . Foiz opsiონi – bu opsiон egasiga qat'iy o'rnatilgan bahoda kelgusida belgilangan kunda yoki ungacha qisqa muddatli depozit yoki ssudani sotish yoki sotib olish huquqini (majburiyat emas) beruvchi kelishuvi.

6. Foiz svoplari. Bitta summaga, lekin turli shartlarda tuzilgan kredit majburiyatlari bo'yicha bashslar o'rtasida bo'ladigan foiz to'lovlari (asosiy qarz bo'yicha to'lovlarni emas) almashinuvi foiz svoplari deyiladi. Masalan, foiz

stavkasi suzuvchi, qat'iy belgilangan yoki har xil ssuda kapitallari bozordagi stavkalarga moslashtirilgan bo'lishi mumkin.

Bozor tavakkalchiligi quyidagi vositalar orqali kamaytirilishi mumkin:

1. Qimmatli qog'ozlar oldi- sotdisiga tuzilgan fyuchers kontraktlari. Ular kontrakt egalariga oldindan o'rnatilgan kurs bo'yicha qimmatli qog'ozlarni sotish yoki sotib olish huquqini beradi. Fyucherslar qimmatli qog'ozlar bozor qiymatidagi tebranishlarda «o'ynash» yoki bunday tebranishlarning zarar keltiruvchi tavakkalchiliklarni kamaytirish imkoniyatini beradi.

2. Fond opsiyonlari. Fond opsioni-bu aksiyalarni (yoki boshqa qimmatli qog'ozlarni , agar ular fond birjasida aylanayotgan bo'lsa) kelishilgan muddat mobaynida sotish yoki harid qilish huquqini beradi .

3. Investitsiya portfelining diversifikatsiyasi. Qimmatli qog'ozlarni qadrsizlanishdan himoya qilishning eng muhim vositasi bank investitsiya portfelini diversifikatsiya qilishdir.

Valyuta tavakkalchilikini kamaytirish uchun quyidagi usullardan foydalanilish mumkin:

1. Kredit shartnomasida o'rnatilgan forvard kursini hisobga olib boshqa valyutada qaytarish sharti bilan biror bir valyutada ssuda berish. Bunday tadbirlar bankni kredit valyutasi kursining pasayishi ehtimolligidan himoya qiladi.

2.Forvard valyuta kontraktlari. Bu valyuta tavakkalchilikini pasaytirishning asosiy usulidir. Bunday operatsiyalar bitim summasini va forvard almashuv kursini shartnomada qat'iy o'rnatib xorijiy valyutani oldi- sotdisi bo'yicha bank va mijoz o'rtasida muddatli kelishuv imzolanishini ko'zda tutadi.

3.Valyutaviy fyuchers kontraktlar. Fyucherslar ma'lum bir miqdordagi xorijiy valyutani kelgusida aniq bir kunda sotish yoki sotib olish kelishuvini o'zida aks ettiradi. Lekin forvard kontraktlaridan farqli ravishda uning shartlari nisbatan oson va yengil ko'rib chiqiladi .

4. Valyuta opsiyonlari.

5. Valyuta svoplari. Valyuta svopi ikki tomon o'rtasida turli valyutalardagi to'lovlarning almashinishi (albatta , kelajakda) haqidagi kelishuvdir.

6. Valyuta tavakkalchilikini sug'urtalash. Hamma tavakkalchilikni sug'urta tashkilotiga o'tkazishni ko'zda tutadi.

Banklarning o'z faoliyatlari jarayonida duch keladigan turli xildagi tavakkalchiliklarni kamaytirish usullari bo'yicha tadbirlarning ishlab chiqishi tavakkalchilik sohasida bank strategiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bunday turdagi operatsiyalarni bank o'z mablag'lari hisobidan ham (bu holda tegishli moliyaviy tavakkalchilikni pasaytirish yoki u uchun bozar shartlari qulay kelgan taqdirda imzolangan shartnomalardan olingan daromadlarni kuzatib borishi kerak) hamda mijoz topshirig'iga asosan ham (bu holda vositachi sifatida ishtirok etib mukofot oladi) amalga oshiradi.

3.2 Tijorat banklari tavakkalchilikni boshqarishda xorij tajribasini amaliyotga tadbig'i

1988 yilda Xalqaro Bazel qo'mitasi tomonidan bank kapitali yetarligiga doir kelishuv (Bazel I) ishlab chiqildi va unda kapital yetarliligini hisoblash maqsadida regulyativ kapital (umumiy kapital) tushunchasi amaliyotga joriy qilindi. Regulyativ kapital asosiy va qo'shimcha kapitaldan tashkil topib, bank faoliyatini boshqarish va iqtisodiy me'yorlarning hisob-kitobini o'tkazish maqsadida hisoblash yo'li bilan aniqlanadigan bank kapitalidir.

Bazel qo'mitasi o'zining 35 yillik faoliyati davomida bank faoliyatining turli yo'naliashlari bo'yicha o'nlab hujjatlar chop etgan. Jumladan, bank nazoratini tashkil etish, kapital yetarliligini ta'minlash, muammoli va kuchsiz banklar bilan ishlash, bank boshqaruvi va boshqa soxalarga oid hujjatlar ko'pgina davlatlar bank tizimi rivojlanishini ta'minlab kelmoqda. XXI asr boshiga kelib ko'pchilik iqtisodchilar fikriga ko'ra hali ko'p umr kechirmagan Bazel I zamonaviy bank ishi tarraqiyoti talablariga javob bermay qo'ydi. Chunki, so'nggi yillarda moliya bozorida nobarqarorlikning o'sishi va ularda bank operatsiyalari aktivizatsiyasining oshib borishi bank tavakkalchiliklarini baholashda ko'pgina tavakkalchiliklarni qamrab oluvchi murakkab yondashuvni

ishlab chiqishni talab etardi. Shu sabab, Bazel qo‘mitasi 2004 yil iyun oyida kapital yetarliligi bo‘yicha yangi kelishuv – Bazel II ni ishlab qildi.

Bazel II da yangilik sifatida quyidagilar kiritilgan:

banklarning o‘zlari tomonidan tavakkalchiliklarni miqdoriy baholashga asoslangan yangi tizim yaratilgan;

kelishuvda operatsion tavakkalchilik, ya’ni, ichki jarayonlar, xodimlar xatosi va tashqi hodisalardan zara ko‘rish ehtimoli inobatga olingan;

Bazel II tuzilishi 3 komponentdan iborat: bank kapitali yetarligiga minimal talab, bozor intizomi va bank nazorati. Asosiy ko‘rsatkich, ya’ni umumiy kapital yetarliligi (N_1) o‘zgarmas– 8% ligicha qolgan.

Agar umumiy kapital yetarliligi 10% dan pastga tushsa, bankrotlik to‘g‘risida ogohlantiriladi, agar 8% dan tushsa (3 oy mobaynida) kredit tashkilot lisenziyasi chiqarib olinadi.

Bazel II kelishuvining xususiyatlari

Komponent - 1. Kapital yetarliligiga minimal talab (kredit, operatsion va bozor tavakkalchiliklarining baholash jihatlarini aks ettiruvchi tijorat banklari kapitali etarliliga minimal talab). Bundan asosiy maqsad, bank regulativ kapitalining mavjud iqtisodiy tavakkalchiliklarga nisbatan ta’sirchanlik darajasini yanada aniqlashtirishdan iborat. Tavakkalchiliklarni baholashning murakkab metodlaridan foydalanishni rag‘batlantiruvchi tizimi ko‘rsatilgan.

Komponent – 2 Nazorat jarayonini tashkil etish. U banklar va nazorat organlari o‘rtasidagi aloqalarni yanada yaxshilashga urg‘u beradi. Bazel qo‘mitasi tavakkalchiliklarni hisoblashda nafaqat kapitalga nisbatan minimal talablarga rioya qilinishini tekshirish, balki tijorat banklari va nazorat organlarining tahlil imkoniyatlarini rivojlantirish, xususan kapital yetarliligini ichki baholash metodlari bilan baholashda stress-testni yo‘lga qo‘yishni taklif etadi. Stress-test aktivlarni baholashda yuzaga keladigan salbiy o‘zgarishlarni aniqlash imkonini beradi.

Banklarni tartibga solishning alohida yondashuviga o‘tish ko‘zlangan.

Komponent – 3 Bozor intizomi. Ma’lumotlarning ochiqchililigiga bo‘lgan

talab murakkablashadi: banklar o'z faoliyatining maksimal ochiqqligini ta'minlashlari kerak bo'ladi. Banklar tavakkalchiliklarni baholash usullarini, shuningdek, defolt holatiga tushish ehtimolligini ochishlari kerak bo'ladi. Bank kapitali tavakkalchilikka tortilgan aktivlarning 8 %dan kam bo'lmasligi kerak.¹⁷

Bank kapitali uch darajada aniqlanadi.

Bazel talablarining joriy etilishi ma'lum axborot-statistika mahsulotlarini, xususan, moliyaviy holat, defolt monitoringi bo'yicha, kontragentlar, kredit tavakkalchiligi va muddatli kategoriyalari bo'yicha, foiz stavkalari, tovarlarning bozor qiymati, valyuta va fond qimmatliklari dinamikasi bo'yicha, kredit, bozor va operatsion tavakkalchiliklar natijasida ko'rilgan moliyaviy yo'qotishlar bo'yicha zaruriy ma'lumotlar bazasini taqozo etadi.

O'zbekiston bank tizimida Bazel III standartlarini joriy etish kerak. Bazel III Markaziy Bank nazoratini rivojlantirib, ma'muriy usullarda tavakkalchilikka yo'naltirilgan (orientatsiyalashgan) usullarni qo'llashga hamda bank tizimi ochiqqligini ta'minlashga sharoit yaratadi. Ma'lumki O'zbekiston bank tizimining likvidlik darajasi Bazel qo'mitaning talablariga nisbatan 3 barobar yuqori. Shu sabablardan Bazel III standartlarini joriy etish bank tizimi ustidan nazoratini samaraliroq tarzda standartlarini joriy qilishga imkoniyat yaratadi.

Biroq Bazel III standartlarini o'zlashtirish jiddiy tayyorgarlik va katta xarajat talab etadi. Shuningdek, kerakli infratuzilmani shakllantirish uchun qonunchilik bazasini moslashtirish zarur bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda Bazel III banklarning kapitali adekvatligini tavakkalchiliklarni boshqarish tizimini takomillashtirish orqali ta'minlashga qaratilgan tamoyillarni va o'ziga xos bank nazorati tizimini aks ettiradi. Bazel III standartlarining amaliyotimizga joriy etilishi O'zbekiston bank tizimi rivojlanishida yangi bosqichni boshlab beradi.

Agar tavakkalchiliklarni oldini olishning to'liq imkoniyati bo'lmasa, u holda oxirgi manba— bu tavakkalchilikni boshqarish usuli, ya'ni tavakkalchilikni

¹⁷ International Convergence of Capital Measurement and Capital standards: Revised Framework-BCBS.-2008.-june.-www.bis.org

qoplash hisoblanadi.

Tavakkalchilikni qoplashda quyidagi ishlarni bajarish lozim:

1. Banklar tomonidan umumiy va maxsus rezerv fondlarini tashkil qilish;
2. Ma'lum yig'indilarni zararlarga o'tkazish;
3. Kreditlar bo'yicha foizlar belgilashni to'xtatish va boshqalar.

Tavakkalchilikni boshqarish daromad bilan Tavakkalchilik o'rtasidagi optimal nisbatni topish, mavjud tavakkalchilikni minimallashtirishni o'z ichiga oladi.

Bank sektorida tavakkalchilikni boshqarishning yana bir qator yo'llari mavjud bo'lib, ular quyidagi asosiy bosqichlardan iborat:

1. Bankning tavakkalchiliklarga ta'sirchanligini o'lchash va identifikatsiya qilish. Bank rahbariyati bankning turli bo'linmalariga tavakkalchiliklarning qanday omillari xavfli ekanligini aniqlashi hamda ushbu tavakkalchiliklarning hajmi va darajasini qanday o'lchash kerakligi yuzasidan qaror qabul qilishi kerak.

2. Bankning har bir bo'linmasining joriy siyosati va tavakkalchilik omillarining har biri adekvat tarzda kompensatsiya qilinayotganligini aniqlash uchun bu siyosatning har kunlik amaliyotga joriy qilinishining holatini nazorat qilishi kerak.

3. Tavakkalchiliklarni boshqarish sohasidaga chora – tadbirlarni tahlil qilish bilan bankning qisqa va uzoq muddatli rejalarini muvofiqlashtirish. Bank rahbariyati tavakkalchilik faktorlarining boshqarilish darajasi qo'yilgan maqsadlarga mosligini aniqlashi kerak.

4. Tavakkalchiliklarni boshqarish sohasida (har bir hisobot davri davomida va yakunida) olib borilgan tadbirlar va qarorlar tahlili. Bank rahbariyati tavakkalchilik omillarini to'liq aniqlab olganligi va ularni bartaraf qilish yuzasidan olib borilayotgan ishlar bankning qisqa va uzoq muddatli rejalarida ko'zda tutilgan maqsadlarga erishishni ta'minlay olishiga ishonch hosil qilishi zarur.

Jahon amaliyotida valyuta xatarlarining qo'yidagi usullari qo'llaniladi:

- aktiv va passivlar bo'yicha valyuta oldi-sotdisining o'zaro hisobi, u «METching» usuli deb atalib, unda valyuta chiqimining ko'rsatkichidan valyuti kirimi hisob qilinishi yordamida bank ularning hajmiga va o'z navbatida o'z xatarlariga ta'sir o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladi;

- «netting» usulining qo'llanilishi, ya'ni bunda valyutalarni mustahkamlash evaziga bitimlar miqdorini qisqartirishning maksimal imkoniyati. Buning uchun banklar bo'linmalar tashkil etib, bu bo'limlar xorijiy valyutalarni oldi-sotdi qilish bo'yicha buyurtmalar tushishini muvofiqlashtirib boradi;

3.3 Tijorat banklarida tavakkalchiliklarini boshqarishning takomillashtirish yo'nalishlari

Tijorat banklari tavakkalchiliklarini boshqarishda muayyan tamoyillari mavjud bo'lib, ular quyidagilar :

ishonchli (blankali) kreditlar bo'yicha maksimal tavakkalchilik miqdori bank kapitalining birinchi darajasi miqdorining 5 foizidan oshmasligiga rioya qilinishi;

bank tomonidan beriladigan yirik kredit bank kapitalining birinchi darajasi miqdorining 10 foizidan oshmasligiga rioya qilinishi;

o'z kapitalidan ortiq summaga tavakkalchilik qilmaslik;

kam daromad olish imkoniyatida tavakkalchilik qilishga intilmaslik;

bir qarz oluvchiga yoki o'zaro bog'liq qarz oluvchilar guruhiga to'g'ri keluvchi maksimal miqdor bank kapitalining birinchi darajasi miqdorining 15 foizidan oshmasligini asos qilib olish;

bir mijozga yoki bir-biri bilan bog'liq qarzдорlar guruhiga berilgan yirik kreditlar ko'pincha banklarning inqirozga sabab bo'lishini unutmaslik;

bir qarz oluvchiga beriladigan kredit miqdori bankning ustav kapitali miqdorining 10 foizidan yuqori bo'lmasligini asos qilib olish;

Tavakkalchiliklarni boshqarishning asosiy usullari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

tavakkalchiliklarni o'lchash usullaridan foydalanish;

tashqi tavakkalchiliklarni hisobga olish;

bank mijozining moliyaviy ahvolni muntazam nazorat qilib borish, to'lovga layoqatlilik ko'rsatkichlari, reytingini aniqlash va boshqalar;
tavakkalchilikni taqsimlash yo'lini qo'llash, kreditni qayta moliyalashtirish;
diversifikatsiya siyosatini o'tkazish;
banklarning hisobga olish opretsiyalarini kengaytirish;
kreditlar va depozitlarni sug'urtalash;
garov asosida kreditlashni kengaytirish va boshqalar.

Respublikamiz banklari tavakkalchilik-menejment tizimida kredit tavakkalchilikini samarali boshqarishni quyidagi yo'nalishlarda takomillashtirish maqsadga muvofiq. Banklarda kredit tavakkalchilikini baholash uslubiyotini takomillashtirish hozrgi kunda banklarimizda kreditga layoqatlilikni baholashda moliyaviy koeffitsientlardan (qoplash, likvidlilik, muhtoriyat) foydalanish bilan cheklanib qolmoqda. Pul oqimlarini tahlil qilish, skoring, ichki reyting asosida baholash usullaridan bank amaliyotida tavakkalchiliklarni baholashda keng foydalanish lozim.

Respublika banklari kredit portfeli sifatini yanada oshirish. Mamlakatimiz bank tizimini kreditlardan ko'rilishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni qoplash uchun tashkil etilgan maxsus zahiralarining jami bank aktivlariga nisbati ko'rsatkichi 2 barobarga ortiqni tashkil qilmoqda. Vaholanki, ushbu ko'rsatkichning maqbul darajasi 0.5 foizni tashkil etmog'i lozim.

Kredit portfelining diversifikatsiyalanish darajasini oshirish hozigi kunda ko'pchilik yirik banklarning kredit portfeli tarkibida bir tarmoqqa ajratilgan kreditlar hajmi yuqori salmog'ni tashkil etmoqda. Bu holat banklar kredit portfeli tavakkalchilikkining ortib borayotganligidan dalolat beradi.

Tijorat banklari risk-menejment tizimida xorijiy valyutadagi majburiyatlarning sezilarli darajada oshishiga yo'l qo'ymaslik, valyuta tavakkalchiliklarini samarali boshqarish bank barqarorligini ta'minlashda muhim ro'l o'ynaydi. Respublikamiz tijorat banklari kredit portfeli tarkibi tahlili ko'rsatishicha, milliy valyutaning devalvatsiyalanishi sharoitida xorijiy valyutadagi kreditlarning umumiy kredit portfelidagi salmog'i sezilarli darajada

pasaygan. Fikrimizcha, respublikamiz banklari faoliyatida operatsion tavakkalchilik darajasini tartibga solish amaliyotini takomillashtirish tavakkalchilik-menejmentni samarali tashkil etishning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanishi zarur. Bank kredit faoliyatidagi operatsion tavakkalchiliklarning joriy holatini boshqarish metodologiyasining tahlili shuni ko‘rsatadiki, bugungi kungacha respublikamiz bank amaliyotida operatsion tavakkalchiliklarni muntazam aniqlash, o‘lchash va ularni minimallashtirishni o‘zida ifoda etuvchi operatsion tavakkalchiliklarni boshqarishning kompleks konsepsiyasi amaliyotga joriy etilmagan.

Ayni paytda, tijorat banklari faoliyatida operatsion tavakkalchiliklarni aniqlash va shu maqsadda zaruriy ma‘lumotlar bazasini shakllantirish uchun banklar operatsion zararlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni doimiy yig‘ib borishi, operatsion zararlar bo‘yicha hisobot shaklini ishlab chiqishlari va ularni muntazam to‘ldirib borishlari lozim.

Banklardagi ichki operatsion tavakkalchiliklar ma‘lumotlari bazasi 3-5 yil davomidagi ma‘lumotlarni jamlay olsagina, ulardan kelgusi tavakkalchiliklarni aniqlashda foydalanish imkoniyati yuqori bo‘ladi.

Mamlakatimiz bank amaliyotida operatsion tavakkalchiliklarni o‘lchashni takomillashtirishning quyidagi yo‘nalishlarini taklif etish mumkin:

Baholash va tahlil qilishning sifat usullarini rivojlantirish yo‘li bilan tavakkalchiliklarni o‘lchash usulini takomillashtirish.

Baholash obyektni kengaytirish yo‘li bilan tavakkalchiliklarni o‘lchashni takomillashtirish. Kredit faoliyatining asosiy operatsion tavakkalchiliklaridan biri sifatida hodimlar malakasi va bank jarayonlari sifatini baholash va tahlil qilishga e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tavakkalchiliklarni minimallashtirish qo‘shimcha usullaridan: funksiyalar autorsingi va jarayonlar benchmarkingidan foydalanish. Tahlillar ko‘rsatishicha, tijorat banklari autorsing (ya‘ni ma‘lum bir funksiyalar va biznes jarayonlarni ushbu sohaga ixtisoslashgan chet kompaniyalariga xizmat ko‘rsatishga berish) va jarayonlar benchmarkingi (ya‘ni ushbu sohada “eng yaxshi amaliyot” ni

doimiy izlash) kabi usullardan yetarli darajada foydalanmaydi. Shu bilan birga, mazkur usullar xorij amaliyotida keng qo'llaniladi va mamlakatimizda foydalanish uchun tavsiya etilishi mumkin.

Bundan tashqari tijorat banklarida operatsion tavakkalchilikni boshqarishni samarali tashkil etish maqsadida, birinchidan, operatsion tavakkalchiliklarni boshqarishni tashkiliy jihatdan ikki bo'limga ajratish, ya'ni operatsion tavakkalchiliklarni idora qilish bo'yicha bo'linma (axborot to'plash, monitoring va operatsion tavakkalchiliklar tahlili uchun javob beradi) va biznes-jarayonlar metodologiyasi bo'yicha bo'linma (bir vaqtda yuz beradigan tavakkalchiliklarni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqadi va bank biznes jarayonlari tahlilini amalga oshiradi) faoliyatini tashkil etish; ikkinchidan, operatsion tavakkalchiliklarning vujudga kelishini oldindan payqash tizimini ifodalaydigan operatsion tavakkalchiliklar asosiy ko'rsatkichlarini ishlab chiqish va joriy qilishda jarayonli yondashuvdan foydalanish lozim.

Bazel qo'mitasining tavakkalchiliklarni boshqarishga nisbatan yangi tavsiyalarini respublikamiz bank tizimiga joriy etish uchun zaruriy shart-sharoitlarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Mamlakatimiz xo'jalik yurituvchi subyektlarida defolt xolatlarining yuz berishi va ularning qayd qilinishi, ularning moliyaviy barqarorligi bo'yicha ma'lumotlarning yetarli emasligi, ichki reyting xizmatlarining rivojlanmaganligi kabi omillar tijorat banklarini Bazel qo'mitasining tavakkalchiliklarni baholash bo'yicha takomillashgan yondashuvlarini joriy etish imkoniyatini cheklanishiga sabab bo'lmoqda.

Bundan tashqari, tijorat banklarining mijozlari – xo'jalik sub'yektlari tashqi reytinglarga ega emasligi bois, ular bo'yicha kredit tavakkalchilikini baholashda standart yondashuvdan foydalanish imkoniyati mavjud emas. Ayni paytda, mamlakatimiz suveren kredit reytingiga ega emasligi, qarz oluvchilar bo'yicha kredit tavakkalchilikini baholashda turli muzokarali holatlarni keltirib chiqaradi. Chunki Bazel talablariga ko'ra, tashqi kredit reytingiga ega bo'lmagan qarz

oluvchilar mamlakat kredit reytingi darajasidan past bo'lmagan holda baholanishi mumkin.

Tavakkalchiliklar bo'yicha yo'qotishlarni qoplash maqsadida tashkil etiladigan zahiralarini tashkil etish, kreditlarni 100 foizdan ortiq bo'lgan tavakkalchilikka tortish bo'yicha talablarni ham joriy etish lozim. Biroq, bu talablar muddatli o'tgan kreditlarni salmog'i me'yoriy darajadan ortiq bo'lgan tijorat banklarining kapital bazasiga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Bazel-III sifatida talqin etilayotgan yangi tavsiyalarda bank kapital bazasini yanada barqaror elementlar hisobiga boyitish, tavakkalchilikka tortilgan aktivlarning 2.5 foizui miqdorida qo'shimcha yangi maxsus zahira kapitalini shakllantirish tijorat banklariga nisbatan kapital yetarliligi talablarini oshishiga sabab bo'lishi mumkin.

Ayni paytda, respublikamiz bank tizimida Bazel-II talablari ham to'liq joriy etilmagan. Kapital yetarliligi ko'rsatkichini hisoblashda esa bozor va operatsion tavakkalchilik hisobga olinmayapti vaholanki, Bazel-II talablariga ko'ra belgilanadigan 8 foizlik minimal kapital yetarliligi darajasi kredit tavakkalchilikiga tortilgan aktivlardan tashqari, bozor va operatsion tavakkalchilik hajmidan kelib chiqib belgilanadi. Shu boisdan, mamlakatimizda bank kapitali yetarliliga minimal talablarni belgilashda Bazel-II qoidalarini to'liq hisobga olish zarur.

Mamlakatimiz tijorat banklari asosiy kapitali tarkibida devalvatsiya zahirasi va imtiyozli kreditlash fondi ham hisobga olinmoqdaki, bu Bazel talablariga mos kelmaydi.

Tijorat banklarining 90 kundan ortiq muddati o'tgan kreditlar bo'yicha maxsus zahiralar kreditning so'ndirilmagan qismining 20 foizidan kam bo'lsa mazkur kreditni 150 foiz bilan tavakkalchilikka tortish amaliyotini joriy etish lozim. Bu holat bank rahbariyatining muammoli kreditlar bilan ishlash bo'yicha ma'suliyatini oshirishga xizmat qiladi.

Tijorat banklarining korporativ boshqaruvi tarkibida bank kengashiga bevosita bo'ysunuvchi "Bank tavakkalchiliklarini nazorat qilish" qo'mitasi

tashkil etildi. Bizningcha, mazkur qo'mita faoliyatini samarali yo'lga qo'yish uchun har bir tijorat bankida tavakkalchiliklarni boshqarish bo'yicha quyidagi bo'linmalar ochilishi maqsadga muvofiq:

bozor tavakkalchiliklarini boshqarish bo'linmasi;

kredit tavakkalchiliklarini boshqarish bo'linmasi;

operatsion tavakkalchiliklarni boshqarish bo'linmasi

Ushbu bo'linmalarning tashkil etilishi bank faoliyatida muhim tavakkalchiliklarni aniqlash va ularni muntazam nazorat qilish imkonini beradi. Ayni paytda, Bazel qo'mitasining kapital yetarliligiga nisbatan belgilaydigan minimal talablari ham kredit, bozor va operatsion tavakkalchilik darajasidan kelib chiqadi. Bu esa respublikamizda yuqorida tavakkalchiliklarni hisobga olgan holda bank kapitali yetarligiga nisbatan zamonaviy talablarni joriy etish uchun ham zamin yaratadi.

Markaziy bank tomonidan tijorat banklarida bozor tavakkalchiliklarini boshqarishni tartibga soladigan me'yoriy hujjat ishlab chiqilishi lozim. Bundan tashqari, tavakkalchiliklarni boshqarish tizimini ma'qullash va ichki nazorat tizimiga qo'shimcha ravishda tizim faoliyati samaradorligini muntazam baholab turish zarur. Shubhasizki, foiz tavakkalchiliklarini boshqarish jarayoning barcha oldingi bosqishlari muhim sanaladi, biroq, aynan ko'rib chiqilayotgan tavakkalchilik omillari va turlarini tanlash hamda foiz tavakkalchilikini baholash asosiy hisoblanadi. Baholash noto'g'ri bo'lgan hollarda noto'g'ri boshqaruv qarorlari qabul qilinishi, foiz tavakkalchilikini boshqarishning nomaqbul strategiyasini tanlash mumkin bo'lib, bu kelgusida bankning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

2014 yilda respublika bank tizimining barqarorligini yanada oshirish va xalqaro andozalarga muvofiq rivojlanishini ta'minlash hamda yuqori iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi rolini kengaytirishga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan:

3. Bank tizimi barqarorligini yanada oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar doirasida tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va

nazorat qilish tizimini xalqaro talablar, jumladan, Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining yangi tavsiyalari asosida yanada takomillashtirish bo'yicha ishlar izchil davom ettiriladi.

Xususan: Bazel qo'mitasining kapital yetarliligi va bank likvidligi borasidagi yangi tavsiyalarini joriy qilish bo'yicha ishlarni davom ettirish;

banklar faoliyatining aniq va holis baholanishini ta'minlovchi CAMEL(S) tizimining yangi talqinini tatbiq qilishni ko'zda tutgan holda tijorat banklarining moliyaviy holatini baholash tizimini yanada takomillashtirish;

masofaviy nazorat tizimini bu sohadagi ilg'or xalqaro tajriba asosida yanada takomillashtirish;

bank tizimidagi tizimli tavakkalchiliklarni aniqlashga qaratilgan makroprudensial tahlilning zamonaviy usullarini keng qo'llash;

ilg'or xalqaro tajribaga asoslangan holda tijorat banklarini stress-testlardan o'tkazish amaliyotini keng ko'lamda joriy qilish va rivojlantirish;

tijorat banklaridagi korporativ boshqaruv organlari rolini va mas'uliyatini oshirish hamda korporativ boshqaruv, tavakkalchiliklar va kapitalni boshqarish tizimlariga belgilangan talablarga rioya qilinishi ustidan nazoratni kuchaytirish.

XULOSA

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, respublikamiz banklari faoliyatida tavakkalchiliklarni o'z vaqtida payqash, ularni kamaytirish choralari ishlab chiqish va samarali boshqarish bank tizimi moliyaviy barqarorligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi va Tijorat banklari bank operatsiyalarini amalga oshirishda operatsion va bozor tavakkalchiliklarini aniqlash va tegishli choralar ko'rishni «Tijorat banklarining bank tavakkalchiliklarini boshqarishiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida» Nizom (ro'yxat raqami 2229-son, 2011 yil 25 may) talablariga rioya qilingan holda amalga oshirishni ta'minlanadi. Bank tavakkalchiliklarini boshqarishda chuqur omilli tahlilni amalga oshirishning aniq mexanizmlari joriy qilinsa zahiralarini shakllantirish, kredit portfelini diversifikatsiyalashni ko'zda tutgan holda bank aktivlari sifati monitoringi takomillashtirilsa, shuningdek muammoli qarzdorlik paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik yuzasidan ogohlantiruvchi choralar qabul qilib borilsa Bank tizimining iqtisodiyotdagi moliyaviy vositachilik rolini oshirishga xizmat qiladi va tijorat banklari aktivlarini, shu jumladan kredit portfellarining o'sishini va sifatini yaxshilashni ta'minlash bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi. Tijorat banklari faoliyatini xalqaro andozalar va tamoyillarga yanada muvofiqlashtirish va mamlakatimizda bozor munosabatlari rivojlanishining hozirgi davrdagi yangi real holatidan kelib chiqqan holda moliya-bank sohasining qonunchilik bazasi yanada takomillashtirish banklarimiz nufuzini yanada oshishiga yordam beradi. Bank tavakkalchiliklarini boshqarish tizimi kredit tashkilotini ichki va tashqi tahdidlar ta'siridan himoyalovchi hamda qonunchilik me'yorlari doirasida amal qiluvchi, o'zaro munosabatlar va aloqalarda muayyan yaxlitlikni ifoda etuvchi elementlar majmuini tashkil etadi. Bank faoliyatidagi tavakkalchiliklarni boshqarish quyidagi asosiy maqsadlarni ko'zda tutishi zarur: bank omonatchilari va kreditorlari, aksiyadorlari manfaatlarini himoya qilish, bank tavakkalchiliklarini kamaytirish, bartaraf etish va oldini olish, bank faoliyatini yetarli darajadagi barqarorligini ta'minlash. Bank faoliyatidagi tavakkalchiliklar turli-tuman

bo'lishi qaramay, tavakkalchilik menejmentini shakllantirishda Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan bank tavakkalchiliklariga nisbatan belgilangan talab va tavakkalchiliklar tasnifini hisobga olish maqsadga muvofiq. Chunki, Bazel qo'mitasi tomonidan keltirilgan tavakkalchiliklarni boshqarish bo'yicha amaliy harakterga ega bo'lgan metodologiya shakllantirilgan. Bazel kelishuvi banklar tavakkalchilikli operatsiyasini cheklashni rag'batlantiradi. O'zbekiston bank tizimida Bazel III standartlarini joriy etish kerak. O'zbekiston bank tizimini xalqaro moliya bozorlari tomon integratsiyalashuvi va banklarda buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarini (BXXS) to'liq o'zlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga bank tavakkalchiliklarini baholash va tavakkalchilikni boshqarish tizimini rivojlantirish hamda bank operatsiyalarida narxlarni shakllantirishning bank kapitaliga bo'lgan ta'sirini o'rganish, bank faoliyati samaradorligi, obro'yi va barqarorligining oshishiga olib keladi. Bazel III Markaziy Bank nazoratini rivojlantirib, ma'muriy usullarda tavakkalchilikka yo'naltirilgan (orientatsiyalashgan) usullarni qo'llashga hamda bank tizimi ochiqligini ta'minlashga sharoit yaratadi. Ma'lumki O'zbekiston bank tizimining likvidlik darajasi Bazel qo'mitaning talablariga nisbatan 3 barobar yuqori. Shu sabablardan Bazel III standartlarini joriy etish bank tizimi ustidan nazoratini samaraliroq tarzda standartlarini joriy qilishga imkoniyat yaratadi. Biroq Bazel III standartlarini o'zlashtirish jiddiy tayyorgarlik va katta xarajat talab etadi. Shuningdek, kerakli infratuzilmani shakllantirish uchun qonunchilik bazasini moslashtirish zarur bo'ladi. Kredit tavakkalchilik bank faoliyatida uchraydigan tavakkalchiliklarning eng yirigidir. Kredit tavakkalchiliklari tarkibiga quyidagi tavakkalchiliklarni kiritish mumkin.

1. Kreditlik o'z vaqtida qaytarmaslik bilan bog'liq tavakkalchilik. Bu tavakkalchilik qarz oluvchining kredit shartnomasining shartlarini bajarmasligi, kreditni va kredit bo'yicha foizlarni o'z muddatida qaytarmasligi.

2. Likvidlik tavakkalchiligi (to'lovlarni muddatida o'tkazmaslik tavakkalchiligi)- bu tavakkalchilik kreditni va kredit bo'yicha foizlarni o'z muddatida qaytarmaslik natijasida bank mavjud mablag'larining kamayishiga

olib kelishi bilan bog'liq.

3. Kreditni ta'minlash bilan bog'liq tavakkalchilik. Bu tavakkalchilik yuqorida qayd etilgan tavakkalchiliklar bilan chambarchas bog'liq. Bu tavakkalchilik turi kredit uchun qo'yilgan garovni sotishdan tushgan mablag'larni berilgan kreditni qoplash uchun yyyetarli emasligi bilan bog'liqdir, natijada bank o'z talabini tula qondira olmaydi.

4. Qarz oluvchining ishbilarmonligi bilan bog'liq tavakkalchilik. Bu tavakkalchilik korxonaning ish faoliyati bilan bog'liq bo'lib (sotib olish, ishlab chiqarishi, sotish) uning hajmini investistion dastur va ishlab chiqaradigan mahsulot turi va sifati belgilanadi.

Banklar faoliyatini to'g'ri tashkil qilish, ehtimol qilinadigan tavakkalchiliklarni minimallashtirish masalalaridan biri kredit tavakkalchiliklari, ularning darajalarini aniqlash va tahlil qilishdan iborat.

Kredit tavakkalchiliklarini kamaytirishning eng samarali yo'llaridan biri bankning kredit resurslarini yig'ish va ulardan foydalanish bo'yicha diversifikatsiya o'tkazishdir.

Bank faoliyatida uchraydigan eng murakkab tavakkalchiliklardan biri-foizli tavakkalchilikdir.

Foizli tavakkalchilik bank foizlarini salbiy o'zgarish natijasida foizli marjani kamayishidir.

Boshqa bank tavakkalchiliklari nisbatan foizli tavakkalchilik juda kam urganiladi. Buning asosiy sabablari uning juda murakkabligi.

Oxirgi 20 yil davomida jahon iqtisodiyotida foiz stavkalarining juda yuqori beqarorligi kuzatilyapti. Shuning uchun foizli tavakkalchilikni nazorat qilish va boshqarish bank faoliyatining kredit tavakkalchiligi bilan bir qatorda eng muhim vazifalariga kiradi.

Valyuta tavakkalchiliklarini kamaytirish uchun quyidagi usullardan foydalanish zarur: Forvard kursini hisobga olish, Forvard valuta shartnomalari, Valutaviy fyuchers shartnomalari, Valuta svoplari, Valuta tavakkalchilikini sug'urtalash

Tijorat banklari faoliyatida uning aktivlari va ular bilan bog‘liq aktiv operatsiyalarining tavakkalchilik darajasini aniqlash bu jarayonini boshqarib borish muhim o‘rin tutadi. Xuddi shuning uchun ham har bir tijorat banki o‘z aktivlarini joylashtirishni va uni boshqarish usullarini o‘zi ishlab chiqmog‘i zarur. Ma’lumki, tijorat banklari aktivlarining qiymati va ulardan olinadigan foyda o‘zgarib turishi mumkin. Aktivlar bilan bog‘liq tavakkalchiliklar aktivlar bahosining va ular bo‘yicha olinadigan foyda miqdorining kamayishi aktivlar bo‘yicha tavakkalchiliklar salmog‘ining oshishiga olib keladi. Bank aktivlari bo‘yicha tavakkalchilik darajasini aniqlash bank faoliyatini samarali tashkil qilishning asosi hisoblanib, bank tavakkalchiliklarini kamaytirishga olib kelishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda bank tavakkalchiliklarini samarali boshqarish, o‘z navbatida, bank faoliyatidagi potensial taxdidlarni prognoz, qilish, ularning kelib chiqish ehtimoli, omillari va salbiy oqibatlari darajasini to‘g‘ri baholash va bartaraf etish yuzasidan zaruriy choralarni ko‘rilishi banklarimizni barqaror faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashi shubxasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

I. O'zbekiston Respublikasining qonunlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi– T.: “O'zbekiston”, 2014 y.
2. O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida”gi qonun, T.: “O'zbekiston”, 1995 y.
3. O'zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi qonun, T.: “O'zbekiston”, 1996 y.
4. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, Xalq so'zi, 09.01.2002 y.
5. O'zbekiston Respublikasining “Valyutani tartibga solish to'g'risida”gi qonuni, 11.12. 2003 y.
6. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida»gi qonuni. 04.04. 2002 y.
7. O'zbekiston Respublikasining «Mikromoliyalash to'g'risida»gi qonuni. 15.09. 2008 y.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.01.2009 yildagi 1045-sonli Inqirozga qarshi dastur va boshqa qo'shimcha choralar to'g'risida”gi 2008 yil 5 apreldagi Farmoni.
9. “Banklarning kapitallashuvini yanada oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi investitsiya jarayonlarida ularning ishtirokini faollashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori. Toshkent. 2007 y. 12 iyul.
10. “Qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori. Toshkent. 2008 y. 27 sentyabr.
11. «Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Toshkent. 20.06.2005
12. «Bozor islohatlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining Farmoni. Toshkent. 14.06.2005.

13. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2011 yil 7 maydagi 14/2-sonli "Tijorat banklarining bank tavakkalchiliklarini boshqarishiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi nizomi.

14. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 1998 yil 2 noyabrdagi 421-sonli "Tijorat banklari likvidligini boshqarishga bo'lgan talablar to'g'risida"gi nizomi.

15. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2000 yil 22 fevraldagi 429-sonli "Tijorat banklari kredit siyosatiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi nizomi.

16. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 1998 yil 2 dekabrda 557-sonli "Bir qarzdor yoki o'zaro daxldor bo'lgan qarzdorlar guruhiga to'g'ri keluvchi tavakkalchilikning eng yuqori darajasi to'g'risida"gi nizomi.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 15 apreldagi «Bank tizimini yanada islox qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori. «Xalq so'zi» 16.04.2005.

18. «To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. «Xalq so'zi» 12.01.2005.

19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustivor yo'nalishlari to'g'risida»gi 2010-yil 15-dekabrda PQ-1442 sonli qarori.

20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 29 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2011 yilga mo'ljallangan investision dasturi to'g'risida"gi 1455-sonli Qarori.

21. «Pul mablag'larini bankdan tashqari muomalasini yanada qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining qarori. 05.08.2002 y.

22. «Pul-kredit ko'rsatkichlarni tartibga solish mexanizmini

takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining qarori.04.02.2003 y.

23. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi” mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot. – 2012 yil.

24. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil 30 yanvar.

25. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.

26. Karimov I.A. “Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz”. T: O'zbekiston, 2000, 17 bet.

27. Karimov I.A. “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari”. – T.: Iqtisodiyot, 2009. – 120 b.

28. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash - bizning oliy maqsadimiz. 17- Jild. – T.: O'zbekiston, NMIU 2009. – 280 bet.

29. Karimov I.A. “Jahon inqirozining oqibatlarini yengish mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko'tarilish sari”. 18- Jild. – T.: O'zbekiston, NMIU 2010. – 198 bet.

II. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston

Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 27 yanvarda bo'lib o'tgan qo'shma majlisidagi «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» hamda 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 29 yanvarda bo'lib o'tgan majlisidagi «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Toshkent – «Iqtisodiyot» - 2010 yil.

2. Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi. Darslik. T.: “Moliya” 2012, 510 b.

3. Rashidov O.Yu. va boshqalar. Pul, kredit va banklar. Darslik. T.: TDIU, 2010. 398 b.

4. Гвозденко А.А. Страхование. Учебник.— М-ТК, Велхи, 2012.-464 с.

5. Жарковская Е.П. Банковское дело. Учебник.- М.,ОМЕГА-Л, 2013.- 440 с

6. Лаврушин О.И. Банковское дело. Учебник.-М., Финанси и кредит., 2012 г., 654 с.

7. Миляков Н.В. «Финанси». Учебник.-М., ИНФРА-М, 2010.-543 с.

8. «Инновационное развитие: Экономика, интеллектуальные ресурсы, управление знаниями» Под редакцией Б.З Милнера, Инфра-М, 2010 г.

9. Дорофеев В.Д., Шмелева А.Н. «Инновационный менеджмент» Учебное пособие для вузов. -М: «Феникс». 2009 г.

III. Internet saytlari

1. <http://www.cer.uz> «Ekonomicheskoe obozrenie» jurnalining sayt

2. <http://www.google.com> “Ma'lumotlar qidiruv sayti”

3. <http://www.uza.uz> “O'zbekiston axborot agentligi” sayti

4. <http://www.stat.uz> Davlat Statistika qo'mitasining sayti

5. <http://www.minjust.uz>

6. www.bank.uz

7. www.ipotekabank.uz